

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

fakultet dekani

\_\_\_\_\_ f.f.d. **B.Abdushukurov**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

5111200-O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi  
4-bosqich 403-guruh talaba Xurramova Zarnigor Jo‘raqul qizining  
**“Ona tili o‘qitishda integrativ yondashuv”** mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar**

\_\_\_\_\_ **K.Movlonova**

O‘zbek tilini o‘qitish kafedra

**Taqrizchilar:**

\_\_\_\_\_ **H. Ahmedov**

Adabiyot o‘qitish metodikasi  
kafedrasi o‘qituvchisi.

\_\_\_\_\_ **M.G‘aznaboyev**

viloyati Yangiyo‘l

34-sonli maktab 1-toifali ona

adabiyot fani o‘qituvchisi

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

Toshkent

tumanidagi

Adabiyot o‘qitish metodikasi

tili va

kafedrasi mudiri

\_\_\_\_\_ **fil.fan.dok. Z. Mirzayeva**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

# TOSHKENT-2018

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3-6
<b>I BOB. ONA TILI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING ILMIY-METODIK ASOSLARI</b> .....	
1.1. Ona tili o‘qitishda integrativ yondashuv muammosining ilmiy-metodik adabiyotlarda yoritilishi.....	7-11
1.2. Integrativ yondashuv imkoniyatlari yuzasidan umumiy o‘rta maktablarning ona tili va adabiyot fanlari dastur va darsliklari tahlili .....	11-21
1.3. Ta’lim bosqichlarida ona tili darslarini integratsiyalab o‘qitishning bugungi holati .....	21-32
<b>II BOB. ONA TILI DARSLARINI FANLARARO INTEGRATSIYALASH ASOSIDA TASHKIL QILISH METODIKASI</b>	
2.1. Ona tili fanini fanlararo integratsiyalab o‘qitishning mazmuni.....	33-39
2.2. Ona tili fanini fanlararo integratsiyalab o‘qitish usullari .....	39-46
2.3. Ona tili fanini integratsiyalab o‘qitishga doir mashq va topshiriqlar tizimi .....	46-50
<b>III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI</b> .....	
3.1. Ona tili fanini fanlararo integratsiyalash asosida tashkil etilgan ochiq dars ishlanmalari.....	51-62
3.2. O‘tilgan ochiq darslar bo‘yicha qiyosiy tahlil.....	62-63
<b>XULOSA</b> .....	64-65
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	66-68

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi kunda mustaqil respublikamizda ta'lim sohasi o'ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Bu o'ziga xoslik, eng avvalo, ta'lim-tarbiya mazmunini milliyashtirish, ya'ni o'zimizning juda boy o'tmishimiz tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimizda o'z mohiyati bilan yuksak insoniy-axloqiy mazmuniga ega bo'lgan jarayonda yosh avlodni o'qitishga baxtiga muyassar bo'ldik. Davrimizning hayotiy ehtiyojlari maktablarda ta'lim-tarbiya ishlari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishni, har tomonlama puxta bilim olgan, fan va texnika asoslari bilan qurollangan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur"<sup>1</sup> deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Negaki, taraqqiyotga erishishda mamlakat jtimoiy tizmining barcha sohalari faol bo'lmoqliklari shart.

Umumta'lim maktablarining asosiy vazifasi o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish; ularni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olish, ma'lum fanlar yuzasidan turli bilim va malakalarni hosil qilish, to'la savodxonlikni ta'minlash, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat<sup>2</sup>. Bu vazifani amalga oshirishda o'qituvchi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq o'quvchilarni ongli,

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016.

<sup>2</sup>Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури // ЎзР Халқ таълими вазирлигининг ахборотномаси. №1. – Тошкент. 47-бет.

yuksak saviyali, g'oyaviy siyosiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda o'qituvchining bilimi yoki undagi to'plangan tajribaning o'zi yetarli emas.

Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, avvalo, bu sifatlarni o'zimizda mujjasmalashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga ta'lim tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqazo qiladi. O'quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo shu kunga qadar pedagogik texnologiyaning aksariyati nazariy muammolarga bag'ishlangan bo'lib, amaliyotga ta'siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ta'limda o'quvchilarga ma'lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi-o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir. Pedagogik texnologiya turli-tuman qirralarga ega. Biz ushbu paragrafda faqat bir masala-integratsiya va shu orqali samarali natijaga erishish yo'l-yo'riqlari haqida to'xtalmoqchimiz.

Integratsiya-ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir<sup>3</sup>. "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik.

Integratsiya – "butun" degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib

---

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: I - М.: Русский язык, 1981.-Б. 380.

hisoblanadi. Ona tili ta'limiga integrativ yondashuv uning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda ona tili ta'limida integratsiyaning roli va uning ahamiyati xususida so'z yuritmoqchimiz. Mazkur masalaning metodik jihatlarini tahlil qilish va integratsiyaga asoslangan darslarni ta'lim jarayonida qo'llashning uslubiy taraflarini o'rganish ushbu ishimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o'rganilishi.** Ona tili darslarining metodik jihatlari ko'plab metodist olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, A.G'ulomov<sup>4</sup>, H.Ne'matov, B.Ziyomhammadov<sup>5</sup>, B.Abdullayeva<sup>6</sup> singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning ona tili ta'limidagi o'rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi. Til ta'limiga integrativ yondashuv xususida pedagoglar U.Musayev<sup>7</sup>, D.Yo'ldosheva<sup>8</sup>larning ilmiy izlanishlaridan ham ma'lumotlar olish mumkin. Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan badiiy matn orqali integratsiyalash masalalari K.Mavlonova tomonidan tadqiq etilmoqda<sup>9</sup>.

**Ishning maqsadi** ona tili darslarini integratsiyalashga oid metodikani takomillashtirish.

**Ishning vazifasi quyidagilardan iborat:**

fanlararo integratsiya haqidagi ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganib chiqish;  
ona tili darslarida integratsiyadan foydalanish bo'yicha ta'lim metodlarini aniqlash;

fanlararo integratsiyalab o'qitish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish;  
integratsiyaga asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga yo'naltirilgan dars ishlanmalar tayyorlash.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

---

<sup>4</sup> Gulomov A., Ne'matov X. Ona tili ta'lim mazmuni.-T.: Y'kituvchi, 1995.

<sup>5</sup> Ziyomhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilgor pedagogik texnologiya.-T.: Abu Ali ibn Sino, 2001.

<sup>6</sup> Abdullaeva B.S.Fanlararo aloqadorlik turлари шақида // Узлуксиз таълим. –2005. -.№1.

<sup>7</sup> Мусаев У. Интеграция даражалари // Халқ таълими. – 2002. - № 6.

<sup>8</sup> Йўлдашева Д. Таълим мақсадиға мувофиқ келадиган таълим мазмунини белгилаш имкониятлари // Узлуксиз таълим. Тошкент, 2007.

<sup>9</sup> Мавлонова К. Она тили дарсларида бадий матннинг тил хусусиятларини интеграциялаш асосида ўрганиш методикаси. Монография. –Т.: Машхур-пресс, 2016. 254 б.

ona tili darslarida integratsiyadan foydalanish bo'yicha ta'lim metodlari aniqlandi;

fanlararo integratsiyalab o'qitish usullari takomillashtirildi;

integratsiyaga asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga yo'naltirilgan dars ishlanmalar tayyorlandi.

**Ishning obyekti.** Ta'lim bosqichlarining ona tili darslarida integrativ yondashuv asosidagi dars jarayoni.

**Ishning predmeti.** Ona tilini o'qitishda integrativ yondashuvning mazmuni, usullari hamda uslubiy tavsiyalar.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Ushbu tadqiqotda berilgan ilmiy ma'lumotlardan oliy ta'lim muassasasining filologiya fakultetida tahsil oluvchi talabalar, o'zbek tili va uni o'qitish metodikasi fani o'qituvchilari, umumiy o'rta ta'lim tizimidagi pedagoglar foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## I BOB. ONA TILI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

### 1.1. Ona tili o‘qitishda integrativ yondashuv muammosining ilmiy- metodik adabiyotlarda yoritilishi

Ma’lumki, o‘quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o‘zgarishlarining ham bo‘lishini taqozo etmoqda. Bu jihatdan rivojlangan davlatlarning tajribasiga tayanmoq lozim. Ularning 70 foizi ta’lim tizimida integrativ xarakterdagi o‘quv dasturlari va darsliklardan foydalanmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniya ta’lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo‘lsa, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar, Vengriyada madaniyat yo‘nalishidagi o‘quv fanlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o‘quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o‘qitiladi<sup>10</sup>.

A.G‘ulomov hamda H.Ne‘matovlar ta’kidlashicha, boshqa fanlardan olingan ma’lumotlardan foydalanib, o‘quvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoq lozim. O‘quvchilar badiiy uslubni adabiyot, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika, ish qog‘ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o‘rganishlari zarur<sup>11</sup>.

Ta’lim samaradorligini oshirish uchun integratsiya holatidagi dastur va darsliklar yaratilishi lozim.

Pedagog U.Musayev integratsiyaning quyidagicha turli darajalarini taklif etadi<sup>12</sup>. Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya; bunda o‘quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya’ni oldingi o‘quv-materiali keyingisini to‘ldiradi.

---

<sup>10</sup> Таълим тараққиёти. -Т.: Шарқ, 1999.-Б. 48.

<sup>11</sup> Ғуломов А., Неъматов Х. Она тили таълим мазмуни.-Т.: Ўқитувчи, 1995.-Б. 38.

<sup>12</sup> Мусаев У. Интеграция даражалари // Халқ таълими. – 2002. - № 6.-Б. 5-6.

Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida sistemalarning yaqinlashishi, bog‘lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integratsiya – differensiatsiyaning aksi bo‘lib, unga teskari bo‘lgan jarayondir. Uni quyidagi yo‘nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq:

a) o‘quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmuni integratsiyalab o‘rganish;

b) turli o‘quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;

v) ta‘lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o‘quv kunini integratsiyalash.

Tadqiqotchi B.S.Abdullayeva ham fanlararo aloqadorlikni quyidagi turlarga ajratadi: 1) mazmunli; 2) operatsion; 3) metodik; 4) tashkiliy<sup>13</sup>. B.Abdullayeva ta‘kidlaganidek, ko‘nikma, malakalar fikrlash operatsiyalari orqali o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etadi.

Integratsiya Farididdin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: bu ro‘yi zaminda mayda narsaning o‘zi yo‘q, hamma narsa bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi<sup>14</sup>. Dars faqat ta‘limiy bo‘lib qolmasdan, o‘quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, o‘quv respublikamiz kelajagiga ishonch va e‘tiqodni shakillantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi ( mavzu jihatdan ) va puxta reja asosida tuzilgan bo‘lishi kerak.

Maktablarda o‘qitish va tarbiyalash integratsiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtayi nazardan juda muhim bo‘lib, yangi ijtimoiy

---

<sup>13</sup>Абдуллаева Б.С.Фанлараро алоқадорлик турлари ҳақида // Узлуксиз таълим. –2005. -.№1. - Б.14.

<sup>14</sup> Рўзимухаммад Б. Буюк шахслар силсиласи // Маърифат. - 2002. -№26. -Б.6.



talablar asosida yanada dolzarflik kasb etadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, tafakkurni rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglashga, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Maktablarda o'rgatiladigan fanlarning tarqoqligi maktab bitiruvchisida bir ko'rinishli (fragmentar) dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Hozirgi zamon ilm-fanida esa iqtisodiy, siyosiy va madaniy fanlari integratsiyasiga moyillik yuqori turadi.

Maktab umumta'lim fanlarining tarqoq holda o'rgatilishi, ularni bir-biriga uzviy bog'liqlikda o'rgatilmaligi o'quvchilar bilimni to'la bo'lishi va butun borliqni bir butun holda anglashlariga to'sqinlik qilib, o'quvchilarda qiyinlik uyg'otadi.

Olimlarimizning fikricha, integratsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi.

Bunday tushuncha ta'lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ta'lim sistemasiga integratsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin.

Integratsiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o'rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, maktablardagi boshlang'ich sinflarda darslarning integratsion bog'lanishlari ilmiy jihatdan kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fiklar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo'lmaganligi sababli integratsiya muammosi hamon olimlarimiz o'rtasida bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'qitish jarayonida integratsiyani qo'llash nazariyasi taraqqiyoti ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji, asosiy va muhim ahamiyatga ega. Integratsiya differentsiya bilan uzviy bog'liqdir. Bu uzviylik o'quvchilarda olayotgan bilimlarini anglashga bo'lgan intilishlari sistemasini barpo qilishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Integratsiya – bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonini umumiy o'quv predmetlari mazmuni va maqsadlarini ma'lum uzviylikda va o'zaro mantiqiy bog'langan holda tashkil qilish ta'limni sifat va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchi yoshlarni dunyoqarashini kengaytirib, ularni fikrlash olamini yorqin obrazlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Ta'lim mazmuni va ko'lamini optimallashtirish, o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish, ta'lim mazmunini o'quvchi yoshlar ongi va tafakkurida hayotiy obrazlar vositasida gavdalantirishda ham predmetlararo aloqaning imkoniyatlari cheksiz.

Ona tili darslarini har bir mavzu doirasida o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan bog'langan holda tashkil etish, o'quv jarayonining mazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Axborotlar ko'lamining kengayishi, o'quvchilar bilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmining oshishi, integratsion jarayonlarning optimal variantlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu kabi keng qamrovli jarayonlarni tashkil etish, boshqarish va yo'naltirish uchun esa, albatta, o'qituvchidan tinimsiz ravishda o'z ustida ishlash va intellektual salohiyatni talab qiladi. Ona tili fanini o'qitishda integratsiya o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan tarkibiy bog'lanishni

mustahkamlab, ularni umumlashtirib, o'quvchilarning tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Bu jarayon o'qituvchining qanday usul va vositalardan samarali foydalanishiga bog'liq. Shu o'rinda birinchi galda DTS va o'quv dasturlarini predmetlararo bog'lanish imkoniyatlarini aniqlay olishga e'tibor qaratish lozim. Taqvim mavzu rejalar tuzish jarayonida har bir mavzu mazmunidan kelib chiqib, bog'lanish mumkin bo'lgan fanlarni aniqlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili fanini o'zaro aloqadorlikda o'rganishda o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlarini hisobga olib, yangi o'quv-metodik majmualar mazmuni va zaruriy bog'lanishlarni o'rgatish kabi bir qator tadbirlarni amalga oshirish bu borada samarali natijalarga erishishni kafolatlaydi.

## **1.2. Integrativ yondashuv imkoniyatlari yuzasidan umumiy o'rta maktablarning ona tili va adabiyot fanlari dastur va darsliklari tahlili**

Ona tili va adabiyot fanlari dastur va darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, umumta'lim tizimida o'qitiluvchi barcha fanlar xronologiyasi bir-biriga mutanosib ekanligini kuzatdik. Bu esa o'z navbatida o'qitishga yangicha yondashuvni tatbiq etishga monanddir. Ona tili va adabiyot fanining uzviy aloqadorligi bois o'qitilayotgan mavzular ham mutanosib bo'lishi lozim. Davlat ta'lim standarti talabiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar uch yo'nalishdagi ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

Birinchi ko'rsatkich o'qish texnikasi bo'lib, bu orqali o'quvchining notanish matni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi.

Ikkinchi ko'rsatkich o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bo'lib, bu talab bolaning og'zaki bayon qilinayotgan fikrni hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Uchinchi ko'rsatkich esa fikrni yozma shaklda bayon etish malakasidir. Ta'kidlash lozimki, ona tili ta'limining maqsadi shu yo'nalishda mujassamlashadi. Darsni darslikka asoslanib tashkil etish degani darslikda berilgan o'quv topshiriqlaridagina foydalanishni anglatmaydi, albatta. O'qituvchi darslikdan ijodiy foydalanishi, ya'ni zarurat tug'ilganda mashq shartiga qo'shimcha shartlar kiritishi, berilgan shartni yangi shart bilan almashtirishi, lozim topsa, darslikdagi mashq o'rnida o'zi tuzgan mashqdan foydalanishi mumkin.

Darslik materialiga yordamchi vosita sifatida turli jadvallardan, rasmlar albomlar va tarqatma materiallardan, diapozitiv va diafilmlardan, ovozni yozib olish vositalaridan foydalanish mumkin<sup>15</sup>.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etishi barchaga yaxshi ayon. Ammo dars jarayonida kompyuter texnikasidan hamma vaqt ham foydalanish imkoniyati bo'lavermaydi va bu metodik jihatdan to'g'ri ham emas. Shunga ko'ra ona tili fani to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarning dars jarayonida o'zlashtirgan nazariy bilimlarini mustahkamlashda, og'izaki va yozma nutqlarini rivojlantirishda o'quvchilarning xohish-istaklari bilan kompyuter texnikasidan ijodiy foydalanish katta samara beradi. Ta'kidlash joizki, DTS va o'quv dasturlari uzviylik hamda uzluksizlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, optimallashtirilganidan amaliyotchilar xabardor. Xususan, ona tili fani bo'yicha 10 soat hajmdagi 10ta mavzu optimallashtirilgan edi. Shundan 5-sinfda 4 soat, 8-sinfda 1 soat hajmdagi mavzular murakkab deb topilib, ularga takrorlash darslaridan 1 soatdan qo'shib berilgan. 9-sinfda esa 5 soat hajmdagi 5ta mavzu murakkab deb topilib, kasb-hunar ta'limi dasturiga o'tkazilgan. Optimallashtirilgan mavzular bo'yicha tayyorlangan tavsiyalar risola holida hamda elektron nusxada joylarga yetkazilgan.

Amaliyotchilarning metodik qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 5 va 7-sinflar darsligi asosida yaratilgan "O'qituvchi kitobi"- ning

---

<sup>15</sup> Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Ona tili Adabiyot O'zbek tili (5 – 9 sinflar). – Toshkent, 2010.

to'ldirilgan nusxasi qayta nashr qilindi (N. Mahmudov va b. Toshkent, 2011 yil.) 6-sinf bo'yicha o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma yangidan yaratildi (M. Abduraimova va b. Toshkent, 2012 yil).

Adabiyot murakkab va ko'p qirrali o'quv fanidir. U o'quvchilarni hayot bilan tanishtiradi, ularda atrof-muhit va inson xarakterining murakkabligini tushunish qobiliyatini, Vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini rivojlantiradi. Adabiyot fanidan darsliklarga diqqat qiladigan bo'lsak, keyingi yillarda darsliklar ancha takomillashtirildi. Jumaladan, J.Jabborov she'rlari dasturida berilmagani tufayli darslikdan chiqarilib, optimallashtirilgan o'quv dasturida berilgan H.Olimjonning "O'zbekiston" she'ri kiritildi. E. Vohidovning "Nido" dostoni 5-sinfga o'tkazilgani tufayli, uning o'rniga shoirning "O'zbekim" qasidasi darslikka kiritildi.

A.Nurmonov boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik<sup>16</sup>larida ham mavzular o'rta maktab dasturlarida berilgan materiallarni kengaytirgan holda, shuningdek, boshqa fanlar bilan aloqada o'rgatishga mo'ljallangan. Bizningcha, til ta'limida fanlararo bog'lanish (integratsiya) tamoyilini ijobiy hal etish uchun dastur hamda darsliklarda berilgan materiallarning amaldagi tizimini alohida ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini adabiyot, milliy istiqlol g'oyasi, odobnoma, shuningdek, rasm, chizmachilik fanlari bilan bog'lab o'qitish uchun modulli dars texnologiyalariga amal qilmoq joiz. Chunki bunday darslar o'quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

O'qituvchining ijodkorligi shundaki, ular fan uchun ma'lum, ammo o'quvchi bilmaydigan tomonlarni, avvalo, o'zi loyihalaydi va o'quvchilarini ham shunga undaydi. Modomiki, shunday ekan, akademik litsey o'quvchilarida tafakkur

---

<sup>16</sup> Нурмонов А. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Академик лицейларнинг 1-босқичи учун дарслик. –Т.: Ўзбекистон, 2001; Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Академик лицейларнинг 2-босқич учун дарслик. –Т.: Шарқ, 2002; Nurmonov A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. –Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2010.

o‘stirish uchun modul darslarini tashkil qilish orqali integratsiyani amalga oshirish samarali usul hisoblanadi.

Integratsiya go‘yoki bilim berishda zarur emasga o‘xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo‘l bo‘lib, u orqali o‘quvchilar dunyoqarashi kengayadi: til, san‘at, tarix, musiqa, adabiyotning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. O‘quvchilarni ijod qilishga o‘rgatish, izlanishga yo‘naltirish, tasavvur, fantaziyani hosil qilish, o‘qitishning zamonaviy usullariga kiradi. Jumladan, o‘qituvchi darsga kirib, o‘quvchilarni munozaraga chorlaydi. Adabiyot fanidan berilgan she‘rlarni til o‘qitish darslarida modullashtirish mumkin. Biz modul darslarini integratsiya asosida qanday olib borish kerakligi yuzasidan fikr-mulohazalarimiz bilan o‘rtoqlashdik. Integratsiyali darslarni tashkil qilish uchun o‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rishda o‘quvchilarda faollikni oshirish yo‘llarini, mavzuni o‘tish modellarini, mashg‘ulot jarayonida foydalanish lozim bo‘lgan vositalarni, usullarni aniqlab oladi. Bu ishlarni amalga oshirishda mavzuga oid izchil talablar qo‘yilishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi darsning kengaytirilgan rejasini tuzib, shu reja asosida ish olib boradi. O‘quvchilar mustaqil fikrlash orqali individual ravishda izlanadilar, natijada tafakkur qobiliyatlari rivojlanadi.

Metodist B.Ziyomhammadov va Sh.Abdullaevalar o‘quv jarayoni texnologiyasi alohida olingan bitta darsga, bitta mavzuga yoki o‘quv predmetining bir qismiga, butun o‘quv predmetiga tuzib chiqilishi lozimligini ta’kidlab, uning 5 ta tamoyili borligini ko‘rsatadi.

Birinchisi - muayyan dars, mavzu, qism, o‘quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish; ikkinchisi-darsni yoki o‘quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsad va modullar ichida hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar tizimini aniqlab olish; uchinchisi - modul ichida test savollarini tuzib chiqish; to‘rtinchisi - maqsadlarga yetish usullarini aniqlash, beshinchisi - bir

butunlik tamoyiliga asoslanib, dars qismlari orasidagi zaruriy bog‘liqliklar va fanlararo aloqalarga alohida e’tibor qaratish hisoblanadi<sup>17</sup>.

Integratsiya tafakkur o‘stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya-o‘quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasi.

Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o‘quv fanlarining soni kamayib, samarasi puxta bo‘ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o‘rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo‘llashdan asosiy maqsad o‘quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o‘quv materialini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o‘quvchilarda dunyoni o‘zgacha tasavvur qilishga o‘rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog‘lashga, nazariy qoidalarni so‘zma-so‘z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg‘unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘llarini tushunishga imkon yaratadi.

Ta’lim samaradorligini oshirish uchun integratsiya holatidagi dastur va darsliklar yaratilishi lozim.

Pedagog U.Musaev integratsiyaning quyidagicha turli darajalarini taklif etadi<sup>18</sup>. Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya; bunda o‘quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya’ni oldingi o‘quv-materiali keyingisini to‘ldiradi.

A.Nurmonov boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarida ham mavzular o‘rta maktab dasturlarida berilgan materiallarni kengaytirgan holda, shuningdek, boshqa fanlar bilan aloqada o‘rgatishga mo‘ljallangan.

---

<sup>17</sup> Зиёмуҳаммадов Б., Абдуллаева Ш. Илғор педагогик технология.-Т.: Абу Али ибн Сино, 2001.-Б. 24-25.

<sup>18</sup> Мусаев У. Интеграция даражалари // Халқ таълими. – 2002. - № 6.-Б. 5-6.

Integratsiyali darslarni tashkil qilish yuzasidan yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. O‘quv dasturlarida o‘zaro uyg‘unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya, ya’ni mavzulararo uyg‘unlikni ta’minlash. Tarix va adabiyot, milliy istiqlol g‘oyasi, botanika faniga oid mavzu va matnlarni ona tili darslarida berilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Modullashgan integratsiyada turdosh o‘quv fanlariga oid bilim va tushunchalar bir tizimga solingan holda beriladi.

3. Mavzulararo integratsiya: bunda ayni bir kurs doirasida beriladigan o‘quv materiallari boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo‘lgan o‘quv materiallari bilan uyg‘unlashtiriladi.

Tajribadan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘quv fanlari va mavzularni integratsiyalashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida ta’lim samaradorligi oshadi hamda ortiqcha kuch, zo‘riqish sarflanishlarining oldi olinadi.

Bugundagi ta’limning maqsadi barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqara oladigan ijodkor shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ana shu maqsadni amalga oshiradigan-tizim ichida o‘zgarishlar qilishni taqozo etadigan «innovatsion» tushunchadir.

Bu tushuncha “yangilik” ma’nosini bildirib, ta’lim islohotlarida nazarda tutilgan ta’limda totalitarlikdan demokratik ta’lim tizimiga o‘tish, shaxsning qiziqishlari, qobiliyatini hisobga olish, ta’limni insonparvarlashtirish, ta’lim tizimini jamiyatning iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydigan ta’lim tizimini shakllantirishga sharoit yaratish kabilarni hisobga olish zarur<sup>19</sup>.

Ta’lim uslublari o‘quvchilarning qobiliyatini namoyon etishga, zehni o‘tkirlashga, tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilmog‘i zarur. Shu maqsadda she’riy san’atdan foydalanish, o‘rganilyotgan mavzularni sharhlash va izohlash

---

<sup>19</sup> Йўлдашева Д. Таълим мақсадига мувофиқ келадиган таълим мазмунини белгилаш имкониятлари //Узлуксиз таълим. Тошкент, 2007 № 2. 7-бет.



kabilardan foydalanish maqbul yo'l hisoblanadi. Bu uslublar o'quvchini rag'batlantirish, uning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va qobiliyatini namoyon etishga xizmat qiladi. Shu bois biz muammo yechish san'atlaridan bo'lmish "Botanika" fanidan 5-sinfda o'rganilishi lozim bo'lgan mavzularni she'rga soldik. Chunki ta'lim sohasida "Innovatsiya" ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, shakli va metodlarini, umuman olganda, pedagogik jarayonni tashkil etishda yangiliklar kiritishni nazarda tutadi hamda o'quvchilarda ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonining ta'lim maqsadiga mos kelishini ta'minlash uchun quyidagilarga erishish talab etiladi:

1. Ijtimoiy talab va ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda ta'lim mazmuniga asoslangan yangi o'quv modellarini o'qitish jarayoniga tatbiq etish. Bunda o'quv-biluv jarayonida o'quvchining faolligini ta'minlash asosiy maqsadlardan biri bo'lishi lozim. Shu bilan bir qatorda ta'lim maqsadiga mutanosib bo'lgan ta'lim mazmunining shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlovchi yo'nalishlarini kengaytirish hamda fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan iboratdir<sup>20</sup>. Haqiqatdan ham ta'limda maqsad va mazmun birligi o'z aksini topmog'i kerak, ya'ni:

a) borliqni his qildirishga o'rgatish; b) o'qituvchilarning o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish mahoratini ta'lim maqsadlari va mazmuniga mos tarzda rivojlantirib borish; v) ehtiyoj tufayli bilim olishga odatlantirish; g) o'quvchilarni mustaqil bilim olishini to'g'ri tashkil etishdan iboratdir.

O'quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida voqea va hodisalarni, ularning izohi, isbotini yagona bir tizimga soladi, xulosa chiqaradi,

umumlashtiradi, xayol va fantaziya qila oladi. O'quvchilar mustaqil fikr yuritish, mustaqil so'zlashga o'rgatish uchun ma'lumotlarni qabul qilish

---

<sup>20</sup> Йўлдашева Д. Таълим мақсадига мувофиқ келадиган таълим мазмунини белгилаш имкониятлари //Узлуксиз таълим. Тошкент, 2007. № 2. 25-бет

darajasiga ko'ra aniqlash mumkin. Buning uchun o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berish o'rinlidir:

1. She'r tarkibidan atamalarni aniqlash, ularning xususiyatlarini ta'riflash.
2. She'rni tashkil etuvchi qismlar orasidagi bog'lanishlarni anglab yetish.
3. She'rda aks ettirilgan, ammo o'quvchiga ma'lum bo'lgan obyektlar orasidagi bog'lanishni aniqlash.
4. She'rni nasriy yo'l bilan bayon etish, ilmiy xulosalar chiqarish kabilar talab etilishi lozim. Bunday topshiriqlar o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi. Nazariy tahlil, amaliy kuzatishlar amalga oshadi.

O'quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida voqea va hodisalarni, ularning izohi, isbotini yagona bir tizimga soladi, xulosa chiqaradi, umumlashtiradi, xayol va fantaziya qila oladi.

Ma'lumki, har qanday fan o'ziga yaqin bo'lgan fanlarning ta'sirida yuzaga keladi va ular bilan birgalikda rivojlanadi. Ona tili bosqichlarda to'plangan bilimlarni o'ziga xos ravishda jamlagan falsafa fanidan keyinchalik, xususan, uyg'onish davrida, insoniyat bilimlarining rivojlangan sharoitida mustaqil fan tarmoqlari ajralib chiqq boshlagan, natijada fanlarni tabaqalashtirish jarayoni boshlanib, bu, o'z navbatida, maktab o'quv predmetlari orasida, shuningdek, olamning predmet va hodisalarning o'rtasidagi mavjud bo'lgan tabiiy dialektik aloqalarni ham buza boshladi. Bu esa tabiatdagi narsa va hodisalarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari haqidagi o'quvchilar tasavvurini toraytirish kabi sxolastik bilimlarga olib keladi.

Tizimli (sistematik) bilim, tushuncha va dunyoqarash g'oyalarni shakllantirish uchun fanlararo aloqa bog'lash zarur bo'ladi. Fanlararo aloqa bog'lash predmetlar uchun umumiy bo'lgan faktlar, tushuncha va g'oya, o'qish mehnatining ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha o'rnatilishi kerak. Shuning uchun har bir maktab (dars) predmetlarining faktik va nazariy materiallarning boshqa predmetlarga to'g'ri keladigan tomonlarini hisobga olish

lozim. Mamlakatimizdagi uzluksiz ta'limni fan, ishlab chiqarish hamda jahon ilm-fani va ta'limi bilan integratsiyalashuvi ro'y berayotgan hozirgi sharoitda o'quv predmetlariga integratsion yondashish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ona tili o'qituvchisi predmetlararo ichki bog'lanishda birinchi navbatda uzviylikni ta'minlashi lozim. Predmet mavzulari o'zaro uzviy bog'lanib, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga qarab borish tamoyili asosida yangi mavzuni oldin o'tilgan mavzular bilan bog'lab olib borishdir. Bu tadbirlar fanlararo bog'lanishning ma'lum bo'lgan uch turi, ya'ni yangi mavzuni o'tishdan oldin, yangi mavzuni o'rganish jarayonida va yangi mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng bog'lash usullaridan foydalanib amalga oshiriladi.

Ona tili ta'limidagi tashqi bog'lanish esa uning boshqa turdosh va turdosh bo'lmagan sohalar va fanlar bilan bo'lgan o'zaro bog'lanishni bildiradi. Bu borada ona tili fani adabiyot, ona tili, geografiya, vatan tuyg'usi, milliy istiqlol g'oyasi va manaviyat asoslari, davlat va huquq asoslari, informatika, fizika, matematika, kimyo, biologiya, iqtisodiy bilim asoslari fanlari bilan o'zaro bog'lanadi va mavjud bilimlar umumlashgan holda tasniflanadi.

Quyida ona tili darslarida boshqa fanlarga oid tushuncha va ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha tabaqalanishni tavsiya etamiz.

O'quvchilarda milliy tafakkurni shakllantirishda va rivojlantirishda fanlararo integratsiyani amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- O'qituvchi sinfda (qaysi sinfda dars berishiga qarab) o'qitiladigan barcha fanlar darsliklaridagi materiallarni atroflicha o'rganib chiqishi, ulardagi bog'lanish obyektlarini aniqlab olishi:
- Fan darsliklaridagi mazkur materiallarni o'zaro bog'lanish nuqtalarini aniqlab olishi:
- Dars jarayonida fanlararo bog'lanish nuqtalarining yechimiga olib keluvchi shart-sharoitlar yaratishga e'tibor qaratish:

- Fanlararo integrasiyani amalga oshirishning faol yo‘l va usullarini va vositalarini oldindan tanlash, ishlab chiqish va dars jarayonida mohirona foydalanish:
- Fanlararo integrasiyani amalga oshirishda yetarlicha adabiyotlarni to‘plash va ulardan ko‘rgazmali vosita sifatida dars jarayonida foydalanish:
- Turli fanlarni bir xil obyektlarni o‘rganishga qaratilgan turdosh mavzularini aniqlab olish:
- Bir fan usullaridan boshqa bir fan obyektlarini o‘rganishda qo‘llay olish:
- Turli fanlarda ba’zi obyektlarni o‘rganishda bir xil nazariyadan foydalanish nuqtalarini belgilash va uni amalga oshirish:
- biror voqelikni aks ettirishda sahna ko‘rinishi orqali jarayonni jonlantirish, shu o‘rinda o‘quvchida adabiy nutq madaniyatini shakllantirish:

Bu tadbirlarni to‘liq amalga oshirishda faqat birgina ona tili fani o‘qituvchisini sa’y-harakatlari kamlik qiladi. Bunga barcha fan o‘qituvchilari fan uslubiy birlashmalarida va maktab metodik kengashlarida muhokama qilinib, yagona ishchi dastur ishlab chiqilishi hamda o‘zaro hamjihatlikda faoliyat yuritishi bu boradagi muvaffaqiyatni kalitidir.

Bu borada yana quyidagilarga a’lohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Har bir o‘qituvchi o‘zining mutaxassislik fani bo‘yicha integratsion dasturlarni ishlab chiqadi.
2. Metodik kengashda ko‘rib chiqilgach, barcha fan dasturlari umumlashtirilib yagona ishchi dastur ishlab chiqiladi.
3. O‘qituvchi o‘zining taqvim-mavzu rejasiga fanlararo bog‘lanish nomli ustunni kiritish orqali bog‘lanadigan fan va mavzular kiritiladi va foydalanish usullari ko‘rsatiladi.

Yuqoridagi misollar asosida bir necha o‘quv predmetlari yoki o‘quv fanlariga oid mavzularni uyg‘unlashtirgan integrativ dasturlar, asosida o‘quv muhitini tashkil etish o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida integratsion aloqalardan kengroq va unumliroq foydalanish, voqelikni obrazli qilib tasvirlash o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan bilimlar uzviyligini ta'minlab, ona tili ta'limining barcha maqsadlarini, davlat talablari va DTS ning to'laqonli sifatli va samarali bajarilishini ta'minlaydi.

### **1.3. Ta'lim bosqichlarida ona tili darslarini integratsiyalab o'qitishning bugungi holati**

Fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosini hal etish uchun fanlarning paydo bo'lishi tarixi va ularning taraqqiy etishini anglab yetmoq zarur. Buning uchun fanlarning rivojlanish tarixini bilish lozim. Ana shunda fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosining hozirgi holatini, fanlarning paydo bo'lish tarixi va taraqqiyoti qanday bo'lganligini, kelgusida qanday fanlar bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritish mumkin.

Fanlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq. Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida odamlar tabiat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaganlar, atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisa, jarayonlarni kuzatuvchilari bo'lishgan, xolos. Keyinchalik hodisa, jarayonlarning sodir bo'lishini kuzatibgina qolmay, ma'lumotlar to'plab, tahlil qila boshlaganlar.

Insonlarning ehtiyojlari, mehnat qurollarining takomillashib borishi, tevarak atrofdagi olam to'g'risida tasavvurlarning rivojlanishi, tabiat hodisalariga munosabatning shakllanishi, to'plangan bilimlarni, tajribalarni yig'ish zaruriyati vujudga keldi.

Buyuk pedagog olim Yan Amos Komenskiy bu xususida shunday yozadi: "Barcha o'zaro bog'liqliklar aynan ana shu bog'liqlikda o'rganilishi zarur". Keyinchalik ko'plab olimlar mazkur fikrni umumlashtirgan holda uni yanada rivojlantirdilar.

Ta'lim integratsiyasining bosh maqsadi - shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlashning muhim prinsipi sifatida maydonga keldi.

Integratsiyalashgan ta'lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omili bo'lib qoldi. Fransuz olimi Dj.Dyuining fikricha, "Ayni paytda ta'limda uning og'irlik markazini siljitishga qaratilgan o'zgartirishlar boshlandi. Bu o'zgarishlar, Kopernikning tabiatshunoslikda olam markazini yerdan Quyoshga siljitgan inqilobga juda o'xshab ketadi. Bizning misolimizda bola (o'quvchi) Quyosh kabi, uning atrofida esa ta'lim vositalari girdi-kapalak bo'lib aylanadi. Bola, atrofida shakllantirilayotgan vositalarning markazidir",-deb qaraladi.

Integrativ ta'limda – fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish o'rganiladi. Integrativ ta'lim zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasining rivojlanish jarayonini o'rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi: kibernetika - boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash: informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi fan informatikani kiritish mumkin.

O'quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo shu kunga qadar pedagogik texnologiyaning aksariyati nazariy muammolarga bag'ishlangan bo'lib, uning amaliyotga ta'siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ta'lim integratsiyasi – fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar turlicha ushbu ta'riflarning umumiylik tomoni

- integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat.

Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o'zining rivojini integratsiya g'oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo'lgan predmetlarni o'rganish bo'lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlari yaxlit, bir butunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

Ta'limdagi integratsiyani quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Butun borliq haqida yaxlit tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida qaraladi);
2. Turli fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platforma topish (bunda integratsiya vosita sifatida ishlatiladi);
3. Rivojlantiruvchi ta'lim berish vositasi sifatida;
4. Umuminsoniy, milliy tarbiya vositasi sifatida.

Ikki o'quv fani o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishda va ularning integratsiyasida vaqti-vaqti bilan u yoki bu fan tayanch bo'lib xizmat qiladi. Turli o'quv fanlardagi mavzularning uzviy bog'liqligi va mantiqiy o'zaro aloqadorligi integratsiyalashgan darslarning asosi bo'lishi kerak.

O'zaro ta'sir integrativ didaktik hodisa bo'lib, bir tomondan, ona tili didaktikasining ham, didaktikaning ham tadqiqot predmeti, ikkinchi tomondan esa ta'lim metodlarini tasnif etish mezoni sanaladi. U insonning boshqa faoliyatlari, masalan, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etish, ilmiy kashfiyotlar qilishga o'xshab o'z maqsadi, vositasi, natijasiga ega. O'zaro ta'sirning ma'lum bosqichida erishilgan maqsad keyingi bosqichda vosita sifatida amal qiladi. Binobarin, ta'limning borishida erishilgan maqsad natijasiga, natija esa o'z navbatida keyingi maqsadlarni amalga oshirish vositasiga aylanadi. O'zaro ta'sir o'qitish va o'qish usullarining bir-biriga qo'shiluvi natijasida muvofiqlashuvi — hosila faoliyat shaklida amal qiladi. Uning bosqichma-bosqich harakati tashkiliy-boshqaruv, undash-rag'batlantiruv, nazorattekshiruvni taqozo etadi. Binobarin, o'zaro ta'sirni ma'lum vosita bilan harakatga tushirish, tartibga solish mumkin. O'zaro ta'sirni o'qitish usullari va o'qish usullarining o'zaro tutashuvidan-ularning o'zaro qo'shilgan joyidan izlash yo'li bilan ta'lim metodlarini yaxlit tizim sifatida tavsiflash mumkin. Ta'lim metodlarini o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib tasnif etganda quyidagilarga erishiladi: ta'lim metodlarning yaxlit tizimi yaratiladi; ta'lim metodlarini tasnif etish uchun integrativ birlik ajratiladi; ta'lim metodlarning o'qitish va o'qish usullari

tutashuvidan shakllanishi e'tirof etiladi; ta'lim metodlari muammosiga kompleks yondashiladi; ta'lim metodlariga mazmuniy va jarayoniy tavsif beriladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejaları va dasturlarga o'tish davrida jamiyat va atrof muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish atrof muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadini aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. Boshlang'ich ta'lim dars jarayonida bir qator ishlar fanlararo aloqalarga bag'ishlangan. Bu fanlarni integratsiyalashda o'zbek olimlardan R. Mavlonova, Q. Abdullaeva N. U. Bekboyeva, A. G. Grigoryans ishlarida ko'rib chiqilgan. Integratsiyalashgan dars natijalari o'qituvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo'ladi. Fanlararo integratsiya - bir necha o'quv predmetning bir- biriga taalluqli sohalarini ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi.


Integratsiyaning quyidagi darajalarini belgilash mumkin.

1. Tematik (mavzuiy) integratsiya
2. Muammoli integratsiya
3. Konseptual integratsiya
4. Nazariy intergratsiya

Pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi. Uzviylik - o'zlashtirilgan bilim ko'nikma va malakalarni asta sekinlik bilan kengayib. chuqurlashib, mukammalashib borishini ko'zda tutadi Predmetlararo aloqadorlik- o'zining mohiyatiga ko'ra keng tushuncha bo'lib, o'rganilayotgan obyektning turli jihatlari, xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi. O'zaro aloqadorlik- mohiyatiga ko'ra ikki o'quv predmetlari orasidagi aloqadorliklarni ya'ni birinchi o'quv predmeti bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va ish harakat usullarini ikkinchisida



qo‘llashi va aksincha qo‘llanilishini ifodalaydi. Integrativ aloqadorlik- esa nisbatan yuqori darajali aloqadorlik bo‘lib, avval zikr etilganlaridan o‘quv dasturiga maqsadga muvofiq kiritilganligi bilan farq qiladi va albatta uni ta‘minlashni talab etadi. Natijada obyekt haqida tizimli mukammal bilim ish harakat usullari shakllanishiga imkon yaratadi.



Bugungi kunda integratsiyaga asoslangan darslarni tashkil etishda bir qator ta'lim metodlaridan umumli foydalanilmoqda. Shulardan biri "Insert" usulidir. Buni quyidagi usulda tashkil etish mumkin:

Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

An'anaviy darslarni ko'z oldimizga keltirsak, o'qituvchi mavzuni chiroyli tushuntiradi, savol javob mavzu doirasida uyushtiriladi. Keyingi darsda o'quvchilar o'qituvchi kabi gapirishga harakat qiladi, kitobdan mavzuni qayta qayta o'qiydi biyron aytib beradi. Berilgan savollar ham asosan shu o'tilgan mavzu doirasida bo'ladi. Jurnallar "besh" bilan to'lib boradi. Oradan bir oz vaqt o'tib mavzu so'ralganda o'quvchi aytishga qiynalib qoladi. Yuzaki yodlashning natijasi shunday mavhum holatlarga olib keladi. Masalan, 45 minutlik darsning yarmidan ko'p vaqtini darslikdagi matnlarni ko'chirtirish bilan o'tkazgan o'qituvchilar ham yo'q emas. Bugungi darslar o'quvchini mustaqil fikrlashga bahs munozaraga, o'zini-o'zi tahlil eta olishga, egallagan bilimlarini amalyotga qo'llay olish. Bola tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda yana FSMU texnologiyasidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Bugungi kunda ona tili fani o‘qituvchilari mazkur imkoniyatlarning baridan unumli foydalanmoqdalar va dars jarayonida barchasini qo‘llashga harakat qilmoqdalar.

Ona tili darslarini huquq, tarix, rus tili, geografiya, biologiya, matematika fanlari bilan bog‘lab o‘qitish o‘qituvchidan o‘z faniga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otadi.

Ona tilini biologiya fani bilan bog‘lab o‘rganish. Masalan: 6-sinfda “Daraxt va o‘simlik nomlari” mavzusi o‘tiladi. Dars jarayonida o‘quvchilarni 2 guruhga bo‘lish mumkin.

1-guruh ona vatanimizda o‘sadigan adirlardagi o‘simliklarni yozadilar andiz, shirach, kakra, qo‘ziquloq va hakazo.

2-guruhdagilar tog‘ o‘simliklarini: archa, terak, qayin, na‘matak, bodomcha va hakazo.

So‘ngra topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. O‘simliklar nomi bilan so‘z birikmalari hosil qilish: yashil archa, qari terak, shifobaxsh shirach.

2. Hokim va tobe so‘z tarkibi kengaytiriladi. Baland yashil archa. Shifobaxsh shirachlarni yig‘ib oldilar.

3. Gaplarni kengaytirib matn tuzish mumkin.

“Qo‘shma so‘zlar” mavzusini bolalarga har tomonlama puxta tushuntirishda botanika fani materiallaridan keng miqyosda foydalanish darsni yanada qiziqarli va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Masalan: 5-sinf “Botanika” kitobida o‘simliklarning ro‘yxati berilgan. Unda keltirilgan so‘zlarning 47 tasi o‘simliklarning nomi qo‘shma so‘zlardir.

Anjirpiyoz, atirgul, boychechak, kampirkanop, ituzum, oqjo‘ra, sallagul, dalachoy, qirqbo‘g‘im, chinnigul singarilar shular jumlasidandir.

1-topshiriq.

<b>Ot+otdan</b>	<b>sifat+ot</b>	<b>son+otdan</b>
Boychechak	shirimiya	qirqbo‘g‘im
Dalachoy	oqjo‘xori	Uchqat

2-topshiriq.

<b>Qiyoslash</b>	<b>rang-tus</b>	<b>Miqdor</b>
<b>Kartoshkagul</b>	qora-qat	
<b>Anjirgul</b>		

<b>maza-ta‘m</b>	<b>o‘rin-joy</b>	<b>iste‘mol qilish mumkin</b>
<b>sassiqlik kovak</b>	yeryong‘oq	Ituzum
<b>Shirinmiya</b>	suvqalampir	kiyiko‘t
<b>Achchiqlikmiya</b>		

Shunday qilib til materiallarini berishda botanikadan olingan bilimlarga tayanib ish ko‘rish bu fanning o‘rganish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Ona tili darslaridan matematik amallardan foydalanish ham darslarni qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Masalan: ot so‘z turkumini o‘tayotgan paytda matematik raqamlardan foydalanib otlar hosil qilish mumkin. “**5+ik=?**”, “**k+3=?**”, “**40+oyoq=?**”, “**8+oyoq=?**”, “**t+10=?**” beshik, kuch, qirqoyoq, sakkizoyoq, to‘n va hakazolar.

5-sinf matematika darsligining “natural sonlar” tarkibida berilgan “natural sonlar va nol” bo‘limidagi “o‘nli sanoq sistemasi” deb nomlangan birinchi mavzuni

eslatish fanlararo bog‘lash imkoniyatini yuzaga keltiradi. 555 sonining yozuvida bir xil raqam ishtirok etsa-da, har bir raqam o‘ringa qarab o‘z ma’nosiga ega.

- o‘ngdan 1-besh – 5 ta bir
- o‘rtada 2-besh – 5 ta o‘n
- oxiridan 3-besh – 5 ta yuzlik borligini anglatadi.

Shu mavzuga oid 3-topshiriqda 3 raqami turgan o‘rniga nimani bildirishi so‘raladi. Sonlar: 13; 7073; 5235; 3014; Uch sonining o‘rniga ma’nolari aytiladi. Sonning ma’no turlari aniqlanadi.

Yoki, respublikamiz tarkibida 12 ta viloyat, 136 ta shahar, 120 shaharcha, 20 mingga yaqin qishloqlar mavjud. Gap sintaktik tahlil qilinadi. Raqamlarga to‘xtalib (2, 136, 120, 2000) matematika fanida bu sonlar qanday sonlar turkumiga kiradi? Yana qanday sonlar mavjud? kabi savollar o‘rtaga tashlanadi. Javob:

Bular butun sonlardir. Bu sonlar butun sonlardir.  $\frac{1}{5}$ ,  $\frac{1}{3}$  kabi sonlar ham

matematik tushuchalarni, ham ona tili darslaridagi son va uning turlariga oid ma’lumotlarni beradi.

Shuningdek, son ishtirok etgan maqollar; “Sanamay sakkiz dema”, “Ikki o‘n besh bir o‘ttiz” kabi maqollarni mazmuni sharhlash, unda ishtirok etgan sonlarning turini aniqlash va sonlar ishtirok etgan maqollar ro‘yxatini tuzish kabi topshiriqlar beriladi.

Adabiy ertak va dostonlardagi ishtirok etgan qaxramonlarning sonini aniqlash topshirig‘i, shu topshiriqning davomi sifatida:

Masalan, “Alpomish” dostoni misolida.

I. Yaxshi xislatli timsollar:

1. Alpomish (Hakimbek)
2. Qaldirg‘och
3. Barchinoy
4. Qorajon
5. ....

## II. Yomon xususiyatli timsollar:

1. Boybo‘ri
2. Toychixon
3. Surxail kampir
4. ....

O‘tilganlarni takrorlash, mustahkamlash darslarini “Mehmon fanlar tashrifi” tarzda quyidagicha tashkil etish ham ta’lim samaradorligini oshiradi. Ona tili darsiga bir qancha “mehmon bo‘lib kelgan” fanlar kelishgani, ular o‘zlari bilan savol-topshiriqlar, test va boshqotirmalar bilan sinashmoqchi ekanligi e’lon qilinadi.

**1-mehmon:** 1-guruhga son ishtirokidagi ertaklarning nomlarini ayting:

Javob: “Qirqqiz”, “Uch og‘ayni botirlar”, “To‘rt yalqov”, “Yetti axmoq”.  
(adabiyot bilan bog‘liqlik).

2-guruhga savol: Son ishtirok etgan geografik nomlarni ayting?

Javob: Uchquduq, Ellikqal’a, Yettisuv, Beshariq, Oltiariq, Mingbuloq, To‘rtko‘l.

3-guruhga savol: Zoologiyaga oid atamalar ayting? Mingoyoq, qirqoyoq, sakkizoyoq yoki botanikaga oid mingbosh, qirqbo‘g‘im, qirqquloq.

Mehmon fanlarning nomlari aytiladi: adabiyot, geografiya, biologiya.

2-vazifani 2 mehmon beradi:

**2-mehmon:** Men sizlarga sessenariy tayyorlab kelganman. Tomosha qiling, qaysi fan vakili ekanligini ayting?

**Ibn Sharaf:** Assalomu alaykum olampanox.

**Amir Temur:** Vaalaykum assalom.

**Ibn Sharaf:** Olampanoh, 7 xil moddaning qorishmasidan ushbu shamdonni yasadik.

**Amir Temur:** Juda ajoyib! Qorishmani qanday tayyorladingiz?

**Ibn Sharaf:** Olampanoh, temir, rux, po‘lat, qalay, qizil mis, kumush va oltin eritmasidan tayyorlangan qorishma o‘tga ham, suvga ham sovuqqa ham chidamli bo‘ladi. Shamdon shundan tayyorlandi.

**Amir Temur:** Ofarin!

**O‘qituvchi:** Sahna ko‘rinishida erishgan so‘zlarni-

Shunday qilib 2 mehmon qaysi fan vakili ekan? Ximiya fanidan ishlatilgan so‘zlar atama deyiladi.

**3-mehmon:** Biz sizlar bilan “**Kim zukko?**” deb nomlangan o‘yin o‘tkazamiz.

O‘quvchilar yana ixtiyoriy 4 guruhga bo‘linadilar. Berilgan so‘zlar ishtirokida qo‘shma so‘zlar hosil qiladilar.

1-guruhga	2-guruhga	3-guruhga	4-guruhga
<b>“Buloq”</b>	<b>“Daryo”</b>	<b>“Ko‘l”</b>	<b>“Soy”</b>
Oydinbuloq	Amudaryo	Issiqko‘l	Enasoy
Mingbuloq	Sirdaryo	To‘rtko‘l	Teraklisoy
Muzbuloq	Qoradaryo	Sho‘rko‘l	Kosonsoy
Shirmonbuloq	Sirdaryo	Oltinko‘l	Quvasoy

Geografiya fanidan ekanligi aniqlanadi.

**3-mehmon:** Mehmon kim?

**O‘quvchilar:** Geografiya fani deb o‘quvchilar aytishadi.

Shuningdek, o‘quvchilarga kichik hajmdagi ingliz, rus tillari matnlarni o‘zbek tiliga yoki o‘zbek maqollarini rus va ingliz tillariga qilish. (Mazmunan tarjima) ham juda samarali usul sanaladi.

Bugungi kunda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari mazkur usullardan foydalanib dars jarayonini sifatli tashkil etmoqdalar.

## **II BOB. ONA TILI DARSLARINI FANLARARO INTEGRATSIYALASH ASOSIDA TASHKIL QILISH METODIKASI**

### **2.1. Ona tili fanini fanlararo integratsiyalab o‘qitishning mazmuni**

Maktabda o‘qitiladigan har qanday fandan beriladigan bilim, tarkib toptiriladigan ko‘nikma va malakalarning shakllantirilishida turdosh o‘quv fanlarning o‘zaro uyg‘unlikdagi imkoniyatlaridan yetarlicha fodalanishning ahamiyatini chuqur anglab yetmog‘imiz har bir pedagog va tarbiyachi o‘zining kundalik pedagogik faoliyatini o‘z fani doirasida fanlararo aloqani amalga oshirishga yo‘naltirish zarur va muhim masalalar tarkibiga kiradi.

Ulug‘ didaktik Yan Amos Komenskiy ta’kidlashicha: “Bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, huddi shunday holda o‘rganilishi kerak”.

Fanlararo bog‘liqlik g‘oyasiga keyinchalik juda ko‘p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo‘shdilar. D.Lokk g‘oyasiga ko‘ra: “Ta’lim mazmuning aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak”.

I.V.Pestalossi o‘zining didaktik maqolasida o‘quv darsliklaridagi bog‘liqlik masalasiga keng to‘xtalib o‘tar ekan: “Bir-biri bilan bog‘liq fanlari ongiga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog‘liqlik holatida ekanini angla” -deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto havfliligini ta’kidlaydi.

O‘tmish pedagogikasida didaktik ta’sirining ruhiy-pedagogik xususiyati hamda psixologik-pedagogik bog‘liqlik to‘g‘risida K.D.Ushenskiy shunday deydi: “Har qanday fan tomonidan xabar qilinayotgan bilim va g‘oya dunyo va xayotga keng nigoh va yorituvchan holatda berilishi lozim”.

Fanlararo bog‘liqlik nazariyasining ishlab chiqishda K.D.Ushenskiy juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu metodika rivojida X.V.Stoyunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqa pedagoglar samarali ish olib bordilar. Fanlararo aloqa va



integratsiyaning maktablarda o'qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko'p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Pedagog olimlardan D.Zvernov, A.Danilov, N.Maksimova, P.Baranov, M.Skatkin; ruhshunos olimlar Y.Kabanova-Miller, M.Polizina, A.Samarin, I.Vergelis; Metodist olimlar R.Lvov, G.Goreskiy, N.Svetlovskaya, M.Kolyagina, N.Pristupa va boshqalar.

Bir qator ilmiy ishlar boshlang'ich maktablarda fanlararo va fanlar ichidagi bog'liqliklar muammosiga bag'ishlangan bo'lib, o'quv qo'llanmalari integratsiyasini asta-sekin yaratib, yo'lga qo'yish masalalariga qaratilgan masalan: T.Ramzayev, G.N.Akvilev, N. Vinelkin, G.Beltyukov va boshqalar.

Integratsiya jarayoni o'rganishda I.Boguslovskiyning "Go'dakdan-olamga, olamdan-go'dakka" maqolasining ahamiyati katta. Unda aytilishicha: Bolalarning atrof-muhitni his qilish, unga o'rganish va maktab ta'limida bu muhitni turli fanlarga sun'iy ravishda bo'linishi turli xil qarama qarshiliklarga sabab bo'ladi.

Bunday qarashlar XIX asrning o'rtalaridayoq olimlarimiz tomonidan e'tirof etilgan edi. G'arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida (ayniqsa Germaniyada) umumlashtirilgan dasturlar tuzila boshlandi. Bu dastur mualliflari o'rganilayotgan hodisalarni mo'ayyan bir o'zak atrofiga jipslashtirishga harakat qiladilar. Ko'pincha bu o'zak atrof muhitni o'rganishdan iborat bo'lib, mehnat jarayoni va madaniyatini ham o'ziga biriktirgan edi.

XIX asr va XX asr boshlarida integratsiya g'oyasi ilg'or g'oyalar qatori qadrlanadi. Nomdor ta'lim islohotchisi J.Dyun farzandni quyosh qatori qo'yib, uni pedagogika markazi deb, o'quv dasturlarini takomillashtirishning yangi prinsiplarini ilgari surdi.

Bunga "Go'dakdan-olamga, olamdan-go'dakka", tezisi misol bo'la oladi.

Keyinchalik markazlashtirilgan fanlar o'ziga bolaning ongini kengaytiruvchi mavzular paydo bo'ldi. Bola ulg'aygan sari uning dunyoqarashi kengayib, ongida oila maktab tuman shahar mamlakat insoniyat koinot kabi tushunchalar paydo bo'la boshlaydi va ilm darajasi ham o'sib boradi.

XX asr boshlarida pedagogika yoʻnalishida bir nechta qiziqarli ishlar bilimlarni integratsiyalash yoʻlida olib borildi. Bu yoʻnalishda ayniqsa boshlangʻich taʼlim sohasida ilgʻor siljishlar roʻy berdi.

Masalan: Pedagog-navator N.I.Papov rahbarligida ochilgan “Moskva shahri oʻqituvchilari toʻgaragi” (1910-1915). Samarali ish olib bordi. Bu oʻqituvchilar oʻzlarining ish dasturlarini ishlab chiqdilar. Unda iloji boricha koʻproq fanlarni birlashtirib, integratsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish gʻoyasi ilgari surildi. Bu holatda boshlangʻich maktablarda asosiy oʻrinda ikki fan yoʻnalishi turishi koʻzda tutilgan.

1. Tabiatshunoslik.
2. Jamiyatshunoslik

Bu fanlar bolalarda atrof-muhit bilan tanishish, odamlar, jamiyat, tashkilotlar hamda oʻzining vazifalari bilan tanishishga yoʻl ochib beradi.

Gumanitar va tabiiy fanlar boʻlmish tarix, geografiya, tabiatshunoslikni biri-biri bilan chuqur va keng bogʻliqliklari qayt etib oʻtiladi.

Grammatika va arifmetika fanlari esa boshqa fan materiallari orqali birlashtirilishi koʻzda tutildi.

Bu bilan boshlangʻich taʼlim maktablarida oʻz ichiga koʻp fanlarni mujassamlashtirgan bita fan—olamshunoslik (dunyoshunoslik) fanini oʻqitish gʻoyasi oʻrtaga tashlanadi. Bu fan taʼlim-tarbiya yoʻnalishida integratsiya yoʻlini tugan asosiy fan hisoblanadi.

Oʻquv materiallarini integratsiyalash, fanlararo uzviylikni mustahkamlash va maktab islohati hususida 1915-16-yillarda xalq taʼlimi yoʻnalishida samarali ishlar olib borilgan.

Shu davrda oʻquvchilarni atrof-muhit xayoti materiallarini oʻzlashtirish va kuzatishga moʻljallangan “Vatanshunoslik” kursini qoʻllash nazarda tutilgan. Bunda tabiat, xayvonot olami, inson kabi tushunchalarni oʻz ichiga olgan keng dastur moʻljallangan. Birlashtiruvchi oʻzak sifatida maktab koʻcha qishloq shahar viloyatlar olindi.

Lekin integratsiya muammosi o'zining yuqori pedagogik darajasiga 1920-yillarda yetdi.

Davlat olimlar kengashi fanlarni asosan uchta bloka ajratdilar. Bu bloklar bilimlar mazmunini yo'naltirishda katta ahamiyatga ega edi. Ular:

1. Jamiyatshunoslik.
2. Mehnatshunoslik.
3. Tabiatshunoslik.

Bunday holatda o'quv darslari integratsiyaga kirishib, o'zlarining xususiyatlarini yo'qotishadi yoki o'rta zvenoda qolib ketardi. Lekin o'zining mazmuni va jihatlari bilan umumlashgan mavzu: shahar kolxoz fabrika tushunchalarini o'zlashtirishda qatnashadi.

Bunday integratsiya yo'nalishi hamma fanlar uchun bir xil bo'lmadi. 1927-yilgacha tarix, geografiya va adabiyot fanlari jamiyatshunoslik faniga qo'shib yuborilgan edi.

Lekin 1930-yillar boshlarida bunday novoshirlik, pedagogik izlanishlarga chek qo'yildi.

Maktab tizimi an'anaviy alohida fanlar ta'limi sistemasiga qaytdi. Albatta, ba'zi ba'zida oldingi kurslar va fanlararo bog'liqliklarga qaytishga chaqiriqlar bo'lib turdi.

Adabiyot darsida o'qituvchi L.Tolstoyning "Urush va tinchlik" asarini o'qitish jarayonida 1912-yilgi Ulug' Vatan Urushini L.Tolstoy o'ylab topmagan desa, shuning o'zi kifoya qilardi. Tarix o'qituvchisi esa ushbu voqealarga qiziqqanlarga asarni o'qib chiqishni maslahat beradi.

Fanlararo integratsiyaning yuqori cho'qqisi deb jamiyatshunoslik darsidagi "Materiya" mavzusini tarix, fizika va Kimyo fanlari o'qituvchilari bilan o'tkazish hisoblanadi.

Huddi shunday konyuktor-ideologiya integratsiyasi sanoat ishlab chiqarish korxonalarida, qishloq xo'jaligida nazariy bilimni ishlab chiqarishdagi mehnat va texnologik jarayonlarni amalga oshirishda qo'llanadi.

80-yillarning yarmidan maorif tizimida integratsiya masalasiga yondoshuvlar yana rivojlandi. Bunda asosan 4 ta yo'nalishga e'tibor qaratildi. Ularni birlashtirishda mazmun jihatdan integratsiya manbalarini alohida fanlar tashkil etadi.

Integrativ manbada hamma fanlar rivojlanayotgan ijod mahsuli sifatida hal qilinishi, texnologik integratsiya asosga umumta'lim jarayoni kompyuterlashtirish yo'nalishiga o'tish, dars jarayonida hamma o'qituvchilar uchun aktiv bo'lgan usulda o'qitish usullarini va sintetik harakterga (Dunyo badiiy madaniyatiga) ega bo'lgan darslar hamda sun'iy ravishda barpo etilgan metopredmetlar (belgi, son, simvol) bo'lishi nazarda tutilgan.

Maktab ta'limi bolalarni fan asoslari bilan qurollantirishga qaratilgan. Barcha o'quv predmetlari yagona maqsadga – barkamol insonni etkazib chiqarishga da'vat etilgan. Bu ta'limning umumiy maqsadi hisoblanadi. Ta'lim jarayonining umumiy maqsadi nazariy bilimlar, malakalar o'quvchining aqliy taraqqiyoti, tafakkuri, dunyoqarashi kabi uzvlardan tashkil topadi.

Ta'lim jarayonining umumiy maqsadini tashkil etgan uzvlar o'zaro uzviy bog'langan. Nazariy bilimlarni o'rganmasdan, malakalar hosil qilmasdan o'quvchilarni aqliy jihatdan taraqqiy ettirish mumkin emas. O'quvchilarni aqliy jihatdan taraqqiy ettirmasdan, ularning tafakkurini o'stirmasdan, bolalarda dunyoqarashni shakllantirib bo'lmaydi. Tafakkur - jarayon, xotira uning mahsulidir. Shunday bo'lgach, o'quv jarayonida o'rganiladigan bilim o'quvchining o'z tafakkuridan qancha ko'p o'tsa, o'rganilayotgan mavzu ustida bolalarning faol aqliy faoliyati qancha ko'proq tashkil etilsa, o'rganilgan bilim xotirada shuncha ko'p va uzoq muddat saqlanadi.

Ta'lim jarayoni maqsadini tahlil qilishni yana davom ettirsak, xususiy maqsadni, xususiy maqsadni amalga oshirishda rioya qilinadigan juz'iy maqsadni, juz'iy maqsadning uzvlari yoki yaqin didaktik maqsadni ajratib olish mumkin. Ta'lim jarayonining xususiy maqsadi alohida olingan bir o'quv predmetini o'rgatishdan ko'zlangan maqsaddir. Ta'lim jarayonining juz'iy maqsadi deganda,

ma'lum bir o'quv materialini o'rganishdan ko'zlangan maqsadni tushunamiz. Juz'iy maqsad o'quv materialiga ko'ra belgilanadi. Masalan, "Ravishlarning ma'no jihatdan turlari" mavzusini o'tishning maqsadi o'quvchilarga holat, payt, o'rin, daraja-miqdor ravishlarini ajrata olishni, ularning o'zaro farqlari, o'ziga xos xususiyatlarini, ma'nolarini singdirishdir. Ta'lim jarayonidagi juz'iy maqsadlarni amalga oshirish yo'li bilan o'quvchilar bo'lakdan butunga qarab boradilar. O'quv predmeti to'liq o'rganilgach, ularda shu o'quv predmetiga oid ma'lum tushuncha hosil bo'ladi. Demak, ta'lim jarayonining juz'iy maqsadi o'quv predmetining mazmuni, o'quv materialining xususiyatlari ko'ra belgilanadi.

Shunday qilib o'quv materiallarini integratsiyalashga bo'lgan intilish butun Dunyo va bizning maorif tizimimizda asosiy e'tiborda turgan muammolardan biridir.

Hozirgi vaqtda ham integratsiya muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda maktablarda integratsiya deganda biz yangi aktiv pedagogik izlanishlarni, pedagogik jamoada ijodiy o'sishni, o'quvchilarga foydali, o'quvchilar ongiga singdirishning qulay usullarini qo'llash mahoratini tushunamiz.

Integratsiya–tarqoq, bo'lak–bo'lak, ayrim–ayrim xoldagi narsalarni bir butun, yaxlit, tizimlashgan holatga keltirish. Integratsiya–turli fanlarga oid bilimlarni yagona maqsadni hal etishga yo'naltirishdan iboratligini anglash S.L.Rubinshteyn integratsiya masalasini yechishda fikrlash xodisani bog'liqlik yo'llarini analiz qilishdan va keyingi boskichda sintezlashdan iborat deb ko'rsatadi. shaxs sifatida shakllanishi, uzoq umr ko'rishinining sabablari inson psixikasining rivojlanishiga bog'liq. Bu borada buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy "O'tmishdan kolgan yodgorliklar" asarida odamning uzoq umr ko'rishini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi. K.D.Ushinskiy bolani faqat o'zi qiziqtirgan narsa bilan emas, tevarak atrofga ongli qarashga o'rgatishni, ta'lim jarayonida o'quv materiallarining ma'nosini, mohiyatini, ilmiy asoslarini eslab qolishi va esga tushirish orqali mantiqiy xotira takomillashishini asoslab bergan. Integratsiya kurslarining sinflarga bo'linishini turli asoslarda qilish mumkin: maqsad va muammolar

asosida; maktab tabiiy-ilmiy tizimidagi vazifalari asosida; qo‘shiluvchi fan tarmoqlari asosida; integratsiya usullari va yo‘llari asosida; o‘quv rejasidagi o‘rni asosida; kursni o‘rganishga sarflangan vaqt asosida; o‘quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va hokazo. Shuni e‘tiborga olamizki, bu kurslarning mualliflari odatda o‘z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo‘yadilar, shu sababli kurslar ko‘p maqsadli, turli vazifali bo‘ladi. Ko‘p miqdordagi dasturlar va ularni tadbqiq etishga urinishlarni ko‘rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo‘nalishlarini ajratishimiz va ularni mohiyatiga qarab sinflarga bo‘lishimiz mumkin.

## **2.2. Ona tili fanini fanlararo integratsiyalab o‘qitish usullari**

Ona tili fanini integratsiya asosida o‘qitishning ko‘plab usullari mavjud. Masalan, 6-sinf darsligida berilgan “Atoqli va turdosh otlar” mavzusini geografiya o‘quv fani bilan bog‘lab o‘tgan dars ishlanmasi bilan tanishaylik. Men darsda O‘zbekiston Respublikasi xaritasidan foydalandim. O‘tgan darsda o‘quvchilarni “Atoqli va turdosh otlar” mavzusi bilan tanishtirgan edim. Shu bois o‘tilgan mavzuni mustahkamlash va yangi mavzuga zamin tayyorlash maqsadida darsni “Zanjir” grammatik o‘yini bilan boshlashni ma‘qul ko‘rdim. Bunda o‘quvchilardan biri shahar nomini aytadi, qolgan o‘quvchilar esa shu shahar nomining oxirgi harfi bilan boshlanadigan boshqa shahar nomini topadilar.

O‘yinda quyidagi shaharlarning nomlari keltirildi:

*Andijon -- Do‘stlik*

*Namangan -- Kogon*

*Nukus -- Nishon*

*Sirdaryo -- Navbahor*

*Yorkent -- Rishton*

*Toshkent -- Nurobod*

*Toshovuz -- Dang‘ara*

*Zafarobod -- Asaka*

*Do‘stobod -- Angor*

*Dehqonobod -- Romiton*

O‘quvchilarning ayrimlaridan shaharlarning nomini yozib ko‘rsatishni talab qildim. Masalan: *Dehqonobod*, *Do‘stobod* shaharlarining nomlarini yozib ko‘rsatish ularning imlo savodxonligini oshirishga yordam beradi. ....

... ..

... ..

... ..

...daryo, ko‘l, suv omborlari nomini aniqlash topshiriq`ini berdim. (Har bir o‘quvchi topshiriqni o‘z viloyati misolida beradi).

Bu o‘yindan keyin o‘quvchilarga savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatdim.

So‘ng g‘olib guruhni aniqlab, darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni baholadim.

Ushbu darsda o‘quvchilar joy nomlarini lotin alifbosi asosidagi yangi yozuvda bexato yozish va geografiya darslarida olgan bilimlarini mustahkamlashga muvaffaq bo‘ldilar.

Demak, “Turdosh va atoqli otlarni o‘tishda toponim so‘zlardan foydalanish” mavzusidagi dars o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq malakalarini o‘stirish, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning til va geografiya bo‘yicha nazariy bilimlarini yanada kengaytirishda yordam beradi.

Ona tili darslari boshqa o‘quv predmetlaridan alohida, mustaqil yashay olmaydi. Aksincha u ta‘lim bosqichlarida o‘rganiladigan xilma-xil o‘quv predmetlari, xususan, adabiyot, matematika, fizika, informatika, xorijiy tillar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilsa, o‘z samarasini beradi. Chunki ta‘lim tizimida fanlararo aloqadorlik – integratsiya darslarini tashkil etish o‘quvchilarning mavzuni tez va oson anglashiga olib keladi. Ona tili darslari asosida so‘z va matn turgani uchun ham bu imkoniyat yanada kengayadi. Chunki matn vazifasini istagan o‘quv

fani materiali bajara oladi. Umuman olganda, fanlararo aloqalarni amalga oshirishning turli xil usullari mavjud. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini o'rganish, shu orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, bunda o'quv fanlararo integratsiyalashdan foydalanishdir. Mazkur ish usuli mohiyatan hosil qilinayotgan bilimlarni mustahkamlash jarayonini ifoda etadi. Dastlab o'qituvchi uslublar haqida umumiy ma'lumot beradi va o'quvchilarga kerakli manbaalarni yozdirib o'tadi. Mavzu tushintirib berilgan keyin, bevosita boshqa fanlar bilan bog'laydi. Ta'lim bosqichlarida, xususan, dars jarayonida "Uslubiyat" mavzusini o'tishda qo'shimcha manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar qo'lga har-xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materiladan foydalanashi mumkin. Bu bilan o'qituvchi darsning qiziqarli o'tishi va shu bilan bir qatorda o'quvchining faol bo'lishiga imkon yaratadi. Masalan, quyidagi materiallardan foydalanishimiz mumkin:

.	<p>-Yaxshi ham boshqa bolalar bilishmadi, dedi Gulchehra xo'rsinib . – bilishganda, bittasi emas, bittasi aytib qo'yardi.</p> <p>-Ha, rozi bo'ldi Abdulla, rosa to'polon bo'lardi.</p> <p>-Men amakidan qo'rqaman. Ko'zi yomon.</p> <p>Gulchehra Dadavoy amakining ko'zlarini ko'rsatmoqchi bo'lib olaydi, o'xshata olmadi. Abdulla kulib yubordi.</p> <p>(O'.Umarbekov. "Odam bo'lish qiyin" asaridan)</p>
.	<p>Qalandarovning hovlisi kattagina ekan. Bir tomonda uncha did bilan solinmagan bo'lsa ham, kattagina imorat, sirkor ayvon: uning ro'parasida hovuz, chog'roq shiypon, sim tortib ko'tarilgan tok, bog'cha, poliz... lekin bularning hammasi hovli egasining havasi zo'ru, hafsala va didi yo'qligini ko'rsatib turar edi: tokning bir necha novdasi simga o'z holicha tirmashibdi-yu, qolgani yerda yotibdi; meva daraxtlarining ostini, polizini sho'ra va</p>



	<p>g‘umay bosib ketibdi.</p> <p style="text-align: right;">(A.Qahhor. “Sinchalak” qissasidan)</p>
.	<p>-Vatan, istiqlol, ma’naviyat... bu so‘zlar inson ongidagi eng buyuk tushunchalarni ifodalashda pur hikmat so‘zlardir. Agar insonda shu so‘zlarning birortasi yo‘q bo‘lsa, hayotning qayeridir kemtik bo‘lib turaveradi.</p> <p style="text-align: right;">(Gazetadan)</p>
.	<p style="text-align: center;"><b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI</b></p> <p style="text-align: center;">Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida</p> <p>Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasiga asoslanib va o‘zbek yozuvining lotin alifbosiga o‘tilgan 1929-1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlari inobatga olingan holda respublikaning har taraflama kamol topishi va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishni jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.</p> <p style="text-align: right;">Ozbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Toshkent shahri, 1993-yil 2-sentabr</p>
.	<p>Yomg‘ir-suyuq tomchi holidagi atmosfera yog‘ini. Tomchining diametri 0,5-0,6mm bo‘ladi.Yomg‘ir bulutlardagi mayda suv zarralarining qo‘shilib yiriklashuvidan hosil bo‘ladi. Yomg‘ir ikki xildir: jala yomg‘ir, shivalama yomg‘ir. Jala yomg‘ir to‘p-to‘p bulutlardan yog‘adi, ko‘p vaqt o‘tmay to‘xtaydi, tomchilari yirik bo‘ladi.</p> <p style="text-align: right;">(Darslikdan)</p>

Matnlardan ko‘rinib turibdiki, har bir uslubni o‘quvchiga tushuntirishda boshqa fanlar bilan bog‘langan. O‘quvchilar qo‘lidagi matnlar jamlanmasini o‘qituvchi bilan birgalikda kuzatib boradilar va bu uning ko‘z o‘ngida qolishiga yordam beradi. O‘qituvchi tushintishni boshlaydi: birinchi matn badiiy asardan

olingan bo‘lib, so‘zlashuv uslubiga, aynan, badiiy so‘zlashuv uslubiga xosligini va so‘zlashuv uslubiga xos belgilarni ko‘rsatib o‘tadi. Ikkinchi gapda esa, badiiy uslub ishtirok etganini va bu uslubni yoritish uchun badiiy asarga yuzlanganini aytadi. Uchinchi gapda publitsistik uslubning yozma shaklini aytib, bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta’sir etish bo‘lib, soddalilik, tushunarlilik, adabiy til me’yorlariga qattiq amal qilishi ekanligi eslatilib o‘tib ketiladi. To‘rtinchi matn rasmiy uslubida yozilganligini tushuntish bilan bir qatorda rasmiy uslub turlariga yana bir marotaba to‘xtab, quyida berilgan matn rasmiy uslubning sof qonunchilik uslubida yozilganligini sharhlab o‘tadi. Va nihoyat, beshinchi matnda o‘qituvchi ilmiy uslubni organish uchun fizika faniga murojat etganligini aytib o‘tadi va ilmiy uslubni yana bir bor takrorlab o‘tadi. O‘qituvchini bu usul, yani uslubiyat mavzusini boshqa predmetlarga murojat etish yo‘li bilan o‘rganish o‘quvchi tez va oson organishini va mavzuni yana bir bor takrorlanishini ta’minlaydi. Integratsiya uslubidan foydalanib bo‘lgandan so‘ng o‘qituvchi quyidagi “Charxpalak” metodini qo‘llab, o‘quvchining mavzuni qay darajada o‘rganganligini tekshirish mumkin.

#### CHARXPALAK

	GAPLAR	So‘zlashuv	Badiiy	Publitsistik	Rasmiy	Ilmiy
1.	Bahor... bu kun olam uyg‘onmoqda!					
2.	Atomlar kimyoviy bo‘linmaydigan zarralardir					
3.	Zargarov qiyqirab kuldi, chapak chaldi va bunga ham qanoat qilmay o‘rnidan turib o‘yinga tushdi					
4.	-Nimalar qilyapsan? -Imtihonga tayyorlanyapman. O‘zingchi? -Kitob mutola qilyapman.					

5.	Istiqlol tig'ini zabardast qo'llarda ushlab uni mustahkamlash, vatan ravnaqi uchun kurashish oliy saodat.					
6.	Hakim Salimovich Olimov haqiqatdan ham Xiva tumanidagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinfida o'qiydi.					
7.	Bozor iqtisodiy kategoriyasi sifatida takror ishlab chiqarishning ayirboshlashini tushunish kerak.					
8.	Martning oxirgi kunlari ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz kuyga solyapti.					
9.	Tobe so'zning hokim so'z talabi bilan ma'lum kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchi bilan kelishiga boshqaruv deyiladi.					
10.	Siyosiy tutqunli og'ir, lekin milliy o'lim-millatning butkul halokatidir.					

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ona tili darslarini adabiyot bilan uyg'unlikda olib borish, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashlarini yanada boyishiga olib keladi. Aynan ona tilida biron bir nazariy ma'lumot o'rganilayotgan bir paytda o'quvchilarga aynan shu damda adabiyotdan o'tilayotgan hikoya, asardan parchalardan misollar topib kelish, ruboiy, g'azallardagi so'zlarni til nuqtayi nazaridan tahlil qilishga o'rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatlarini yanada oshirishga, oliy ta'limda tahlil

yuzasidan bilim, ko‘nikma, malakalar bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lib, til bo‘yicha nazariy ma’lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.

Ona tili — millat tafakkurini ifodalovchi, shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi eng asosiy vositadir. O‘tkaziladigan har bir mashg‘ulot tilimizning beqiyos go‘zalligi, joziba va qudratini o‘rganishga qiziqish uyg‘otishi, uning keng qonuniyatlari bilan tanishtirishi zarurki, bu zamonaviy ta’limni yo‘lga qo‘yishda eng asosiy va muhim omillardan biridir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili Davlat ta’lim standartlari talablariga ko‘ra o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar uch yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

Birinchi ko‘rsatkich — o‘qish texnikasi orqali o‘quvchining notanish matnini ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasi aniqlanadi.

Ikkinchi ko‘rsatkich – o‘zgalar fikri va matn mazmunini anglash malakasi bo‘lib, bolaning og‘zaki bayon qilinayotgan fikrlarni hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Uchinchi ko‘rsatkich – fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi hisoblanadi. Ona tili ta’limining maqsadi shu yo‘nalishda mujassamlashadi.

### **2.3. Ona tili fanini integratsiyalab o‘qitishga doir mashq va topshiriqlar tizimi**

Kasb-hunar ta’limi tizimida fanlararo aloqadorlik – integratsiya darslarini tashkil etish o‘quvchilarning o‘zi tanlagan kasb-hunarining mukammal egasi bo‘lishi uchun yetaklovchi omil bo‘ladi, chunki ushbu ta’lim tizimida o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash, kasb mahoratini shakllantirishdan iborat. Ona tili darslarida “Buxgalteriya hisobi”, “Bank ishi”, “Soliq va soliqqa tortish” yo‘nalishidagi guruhlar uchun darslarni “Marketing” fani bilan bog‘lab tashkil etish o‘quvchilarni ham fanga, ham o‘z kasb-hunariga bo‘lgan muhabbatini oshiradi. Bunda quyidagi dars usullaridan foydalanish mumkin. Dastlab o‘quvchilar “Sotuvchilar” va “Xaridorlar” guruhlariga bo‘linadi.

“Sotuvchilar” guruhidagi o‘quvchilar ona tili fanidan topshiriqli savollar tuzadilar. Ushbu guruh tayyorlagan savollarni o‘qituvchi raqam lab, stolga tarqatib qo‘yadi. “Xaridorlar” guruhidagi o‘quvchilar “Sotuvchilar”ga tashrif buyurib, o‘zlari yoqtirgan savollarni tanlaydilar. Masalan:

№ 1 Gaplardagi sintaktik aloqa vositalarini toping.

1. Siddiqjon etagini qoqib o‘rnidan turdi-da, jadallagancha ko‘cha eshigiga qarab ketdi. (A. Qahhor)

2. Men bir kuy to‘qigan edim, bilmadim, mehmonlarga ma’qul bo‘ladimi, yo‘qmi? (Oybek)

№ 2 Nuqtalar o‘rniga tegishli tinish belgilarini qo‘ying.

Ikki dugona ... Lobar bilan Nazira birga to‘yga ketishdi. Telefon... jiring... etsa... yuragim... shuv etadigan bo‘lgan.

№ 3 Qaysi so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda y tovushi ortadi?

Sira, sina, avzo, to‘qi, obro‘, mavze, o‘qi, iliq.

№ 4 “Registon maydoniga kirdik” gapidagi yordamchi so‘zlarni toping.

“Xaridorlar” guruhidagi o‘quvchilar qaysi do‘kondagi topshiriqlar to‘g‘ri, qaysi do‘kondagi topshiriqlar noto‘g‘ri tuzilganligini aniqlab, baholaydilar. Misol uchun: 1, 2, 3-do‘kondan olingan savollar to‘g‘ri, 4-do‘kondan olingan savollar noto‘g‘ri tuzilgan. Savollarning saviyasi savdo do‘konlarining xaridorgir bo‘lishi hamda erkin raqobatni yuzaga keltirishga asos bo‘ladi. Shuning uchun “Sotuvchilar bozori” guruhidagi o‘quvchilar o‘z savollarini to‘g‘ri, mantiqli va qiziqarli tuzishga harakat qiladilar. Bu usulni qo‘llashda o‘quvchilar tomonidan test, tezkor savollar, boshqotirmalar tuzilishi mumkin. Savollar tuzish orqali o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi, dunyoqarashi kengayib boradi.

A.Rafiyevning “Ona tili” darsligi (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik)dagi<sup>21</sup> “Gap va sintaktik aloqa vositalari” mavzusi yuzasidan berilgan 63-topshiriqqa qo‘shimcha tarzda quyidagi usuldan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi:

---

<sup>21</sup> 1 A.Rafiyev. N.G‘ulomova. Ona tili darsligi. T.: Sharq, 2008.

Dastur tuzuvchilar.

Nafosatshunoslar.

Texnikasevarlar.

Guruhlarga quyidagicha topshiriq beriladi: Berilgan soʻzlardan oʻz guruhingizga mos soʻzlarni tanlang va ular ishtirokida matn yarating. Komputer, elektromagnit, tebranish, paint, nafis, word, oʻzgaruvchan tok, bejirim, energiya, goʻzal, qalb, disk, matn, sigʻim, fleshka, excel, mahliyo, qarshilik. Oʻquvchilar oʻz guruhiga tegishli soʻzlarni ajratib olib, quyidagicha matn tuzadilar.

“Dastur tuzuvchilar” guruhi

Biz informatika darsida word, paint, excel dasturlarini oʻrganamiz. Word dasturi matn muharriri boʻlib, unda hujjatlar tayyorlanadi. Tayyorlangan hujjatlarni fleshka va disklarga koʻchirib saqlab qoʻyamiz. Excel dasturida moliyaviy hisob-kitob ishlarini amalga oshiramiz. Bundan tashqari, dars mashgʻulotlarida basic, paskal dasturlash tillari yordamida turli masalalarni hisob lash dasturlarini tuzamiz.

“Nafosatshunoslar” guruhi

Bizning kollejimizda tikuvchilik guruhi bor. Bunda tikuvchi qizlar bejirim liboslarni tikishni oʻrganadilar. Qizlar tikkan goʻzal liboslari bilan “Nafosat malikalari” tanlovida ishtirok etishdi. Ular tomonidan koʻylaklarga qadalgan nafis marjonlar jilosi barchani mahliyo etdi. “Nafosat malikalari” tanlovida 9-tikuvchilar guruhi qizlari gʻoliblikni qoʻlga kiritdilar.

“Texnikasevarlar” guruhi

Gidroelektrostansiyada suvning mexanik ener giyasi elektr energiyaga aylantiriladi. Elektromagnitning tortishish kuchi undan oʻtayotgan tok kuchiga toʻgʻri proporsional. Vaqt oʻtishi bilan kattaligi va yoʻnalishi davriy oʻzgaradigan elektr toki oʻzgaruvchan tok deb ataladi. Kuchlanish tok kuchi bilan qarshilik koʻpaytmasiga teng. Matn tuzilgandan soʻng undagi sintaktik aloqa vositalari aniqlanib, tagiga chiziladi.

Darslikdagi 73-topshiriqni bajarishda ham integratsiya usulini qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilar o'z mutaxassislik darsliklaridan foydalanishlari mumkin. O'quvchilarga ko'rgazma yoki slaydda quyidagi chizma ko'rsatiladi:

**Va  
Bilan  
Hamda  
Uchun**

O'quvchilar ushbu chizmadagi yordamchi so'zlar ishtirokida gaplar tuzib, daftarlariga yozishlari kerak bo'ladi. Ular quyidagi gaplarni tuzib, daftarlariga yozadilar. Nomoddiy aktivlar korxonaning uzoq muddatli xarajatlari bo'lib, u uzoq muddat davomida yuqori daromad olish uchun sharoit yaratadi. Materialning har bir turini tayyorlash, haqiqiy tannarxini hisoblash ko'p mehnat va vaqt talab qiladi. Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi nizomga asosan xarajatlar to'rt guruhga bo'linadi. Tadbirkorlikni ishbilarmonlik yoki biznes deb ham atashadi. Ko'pchilik tadbirkorlik bilan shug'ullanishni xohlaydi, lekin tadbirkorlikdan hamma vaqt ham foyda olinavermaydi. Traktor yalpi milliy mahsulotga kiritiladi, chunki u tugal mahsulot hisoblanadi. Yozib bo'lingach, gaplardagi sintaktik aloqa vositalari aniqlanib, tayanch so'z va atamalar sharhlanadi. Bu usul ham o'quvchilarning savodxonligini oshirishga, ham iqtisodiy bilimini yuksaltirishga yordam beradi. Inson u yoki bu kasbni o'rganar ekan, unda kasbiy tafakkur shakllanadi. O'quvchilarda iqtisodiy va kasbiy taffakkur rivojlanishi uchun ona tili darslarida iqtisodga oid matnlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Masalan, «Pul muomalasi» fanidan quyidagi matnni keltirish mumkin:

*Inflyatsiya asoschisi Shotlandiyaning Edenburg shahrida dunyoga kelgan Djon Lonini inflyatsiyaning asoschisi deb atashadi. Gap shundaki, qimorboz Loni Angliyada duelda qatnashib, odam o'ldirgani uchun qamoq jazosiga hukm qilinadi. Tez orada u qamoqdan qochib, Fransiyaga kelib qoladi va bank ishi bilan*

*shug'ullana boshlaydi. Tez orada "hammani baxtli, boy qilish" haqida ikkita kitob yozadi. Uning fikricha, muomaladagi tangalarni yig'ishtirib olib, istalgancha hajmda qog'oz pul chiqarib hammani boy badavlat qilish mumkin emish. Uning bu fikri Fransiya qiroli Filipp Orleanskiyga ma'qul tushib, u bank direktori, keyinchalik esa moliya vaziri bo'ladi. Shu tariqa na tovar, na xizmatlar bilan ta'minlanmagan qog'oz pullar muomalaga chiqarilgan. Bu esa pulning qadrsizlanishiga, inflyatsiyaga va butun davlat bank tizimining sinishiga olib kelgan. Lo nomi esa inflyatsiyaning otasi sifatida tarixda qoldi.*

O'quvchilar matnni o'qib, undagi sintaktik aloqa vositalarini topadilar.  
Yordamchi so'zlar: -ki, uchun, va, bilan, na.

Kelishik qo'shimchalari: -ning, -da, -ga, -ni, -dan.

Egalik qo'shimchalari:

III shaxs birlik. Shaxs-son qo'shimchalari: III shaxs birlik.

Ona tili fani mavzularini adabiyot faniga bog'lab badiiy asarlar, hikmatli so'z va maqollar, she'rlar bilan tahlil etilsa, bu ham ta'limiy, ham tarbiyaviy mohiyat kasb etadi. "So'zlarda hissiy-ta'siriy munosabat ifodasi" mavzusida ijobiy va salbiy bo'yoqdor so'zlarni o'rganishda badiiy asarlardan foydalanish samaralidir.

1. "Ziqna bo'lmay, o'l! – deb o'yladi xotinini so'kib, – azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi". Ichkarida chaqaloq yig'ladi. Beshikning g'ichirlagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar big'illay boshladi. Kattasi ham uyg'onib ketdi shekilli, qo'shilishib yig'lashga tushdi. Shoikrom siltanib qaddini rosladi. – Ovozini o'chir, Xadicha! Ichkaridan xotining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi. – Ovozi o'chsa, koshkiydi! To'qqiz ko'chasida jin tekkan bunga!

2. "Menga desa, otib yubormaydimi! – deb o'yladi u ayvon labiga cho'qqayib o'tirgancha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan.

– Harna bitta haromxo'rni o'ldirganim. Bittasi o'lsa, boshqalari adabini yeydi" (O'tkir Hoshimov. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidan).



3. Xursand bo‘lib ketganidan otaxon meni obdon mehmon qildi, keyin termosdan choy quyib berayotib: – Obbo o‘g‘lim-ey, obbo toychog‘imey, – deb qo‘ydi.



4. O‘zimizning agranom oblastga ko‘tarilib ketdi. Umringdan baraka topkur, ko‘p azamat yigit edi. Nima, dadang agranommi deyman? (X. To‘taboyev. “Sariq devni minib” asaridan).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kasb-hunar kollejlarida umumta‘lim fanlarining o‘qitilishida integratsiya usulidan foydalanish o‘quvchilarning o‘zi tanlagan kasb-hunarga e‘tiborini kuchaytirib, kasb mahoratini oshirishga yordam beradi.

### III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

#### 3.1. Ona tili fanini fanlararo integratsiyalash asosida tashkil etilgan ochiq dars ishlanmalari







**O'quvchilarning maqsadi:**  
Axloq-u odob ila nilim olib boramiz,  
Maqsadga yetmoq uchun tarbiyali bo'lamiz.

**O'quvchilarning shiori:**  
Biz vatanning farzandlari, dono o'g'il qizlarmiz  
Shu vatanning har zarrasin qalqon bo'lib asragaymiz.  
Unib o'sgan har yaprog'i, giyohi biznikidir,  
Ularni asrash uchun o'qib, inson bo'lgaymiz.

**Tashkiliy qism o'tkaziladi:**

Psixologik iqlim yaratish  
"Kayfiyat o'yini" o'tkaziladi  
(Bunda biror o'quvchidan she'r so'rayman)

Navbatchi orqali davomatni aniqlash

Kun yangiliklari bilan tanishish.

Ingliz tilida qisqa suhbat.

Sinf o'quvchilarini 2 guruhga bo'lib, guruhlarni nomlab olish. Hozir kuz fasli bo'lganligi uchun guruhlarga quyidagicha nom beraman.

Bahorning issiq tafti, undirdi niholimni,  
Yozning zilol suvlari, to'yirdi niholimni.  
Kuzning iliq taftidan, ko'sa tugdi, gul tugdi,  
Nihoyat yashil o'rmon oppoq qorga burkandi.  
Toping dono o'quvchim nimaning ta'rifi bu?  
Paxta  
Juda to'g'ri.  
Unda guruhingizni "Paxtaoy" deb nomlayman,  
Paxtadek niyat bilan sizga omad tilayman.  
Bilim-u g'ayratingiz, raqibga ko'rsatingiz  
Milliy boylik nomini g'ururla asrang endi siz

**"Paxtaoy" guruhi**

Yana qaytdim, bahorimning issiq iliq kuniga,  
Sayohatga chiqdim sekin, gullagan bog'- tog'iga.  
Yozning issiq quyoshidan, lav-lav yondi olmalar,  
Uzum, o'rik, shaftolilar safga turdi bolalar.  
Sekin- asta ular endi, bankalarga kiradi,  
Mevalarim qolganini oltin kuzim pishiradi.  
Zahmatkash bobo-dehqonim savatlarga tushuradi.  
Endi qishda dasturxonim to'ladi bol, mevaga,  
Shu sababli bu guruhni qiyosladim mevalarga.  
Qanddek shirin mevalarga o'xshasin hayotingiz,  
Bugun siz ham o'quvchim ko'rsating bilim kuchiz.

**"Mevalar" guruhi**

**"Tez yurar poyezd" o'yini orqali o'tilgan mavzularni mustahkamlash. O'yin sharti quyidagicha: Bunda guruhning har bir a'zosiga o'tilgan mavzulardan savol beriladi, to'xtab qolmasdan manziliga tez yetib borgan guruh g'olib sanaladi**

Mavzularni mustahkamlab,  
Aqlingizni charxlangiz.  
Tez yurar o'yinida,  
Bilimingiz sinangiz.

Ko'nglimdagi ezgu hisni,  
Oq paxtaga joyladim.  
Bugun sizga rag'bat uchun,  
Paxtaoyni tanladim.

Futbolda ham ,yo'lda ham,  
Sariq jarima ramzi.  
Daraxtdagi oltin yaproq  
jarimaning belgisi.

1. Tovush nima?
2. Nechta unli tovush bor?
3. Ma'nodosh so'zlar deb nimaga aytiladi?
4. Zid ma'noli so'zlar deb nimaga aytiladi?
5. Gap deb nimaga aytiladi?
6. So'roq gap deb nimaga aytiladi?
7. Buyruq gap deb nimaga aytiladi?
8. Gap bo'laklari deb nimaga aytiladi?
9. Kesim deb nimaga aytiladi?
10. Ega deb nimaga aytiladi?
11. Kitobni o'qidim. Gapdagi kesimni toping.

1. Harf nima?
2. Nechta undosh tovush bor?
3. Shakldosh so'zlar deb nimaga aytiladi?
4. Bir tovush bilan farq qiluvchi so'z ayting
5. Gapda so'zlar necha xil yo'l bilan bog'lanadi?
6. Darak gap deb nimaga aytiladi?
7. Istak gap deb nimaga aytiladi?
8. Gap bo'laklari necha xil bo'ladi?
9. Ot kesim va fe'l kesimni tushuntiring
10. Men ishladim. Gapdagi kesimni toping.
11. Nigora kitobni o'qidi. Gapdagi egani toping

**O'yin sharti:** Savollarga javob berib, gap hosil qilish. Qanday gap hosil bo'lganini tushuntirib yulduzlarni qo'lga kiritish.

**Men kecha dars uchun taqdimot tayyorladim.**

Sen qachon qanday nimani nima qilding?

**Men Power Point dasturida taqdimot tayyorladim.**

Sen qanday nimani nima qilding?

**Men taqdimotni tayyorladim.**

Sen nimani nima qilding?

**Men tayyorladim.**

Sen nima qilding?

**Tayyorladim.**

Nima qilding?

O'zbekimning tarixidan faxr hissin tuygaymiz,  
Ulug'bek bobom ishlaridan samoga yo'l olgaymiz.





O'zbekiston tarixi darsligidan Xiva xonligi tarixiga oid matnni o'qing va undagi Bosh bo'laklarni aniqlab, quyidagi jadvalni to'ldiring!

T/r	Ega	Kesim
1		
2		
...		



Xiva xoni, tarixchi olim Abulg'asiy Bahodirxonning (1603—1664) „Shajarayi to'rk“ asari yuqori katta ahamiyatga ega asardir. Asarda juda katta tarixiy faktlar to'plangan. Asar turkiy qabilalar shajarasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. U kitobxonni Xiva va xivaliklar, shuningdek, Abulg'asiyning ham o'zaro urushlar oqibatida parchalandi ketgan davlatni birlashtirish yo'lida olib borgan shiddatli kurashi bilan ham tanishtiradi. Asarning 132—1663-yillardagi Xiva ijtimoiy-ijtimoiy tarixi, Xiva —Buxoro munosabatlariga bag'ohlangan IX bob tarix fani uchun katta ahamiyatga ega. Mahalliy maalliflar orasida Munis va Ogohiyning tarixiy asarlari ham tarix uchun muhim manba hisoblanadi. Munisning „Firdavs ul-ig'bol“ deb ataladigan tarixiy asari Elhuzarxonning 1806-yilda bergan topshirig'i bilan yozilgan. Asar Xiva XVI asrdan 1810-yilgacha bo'lgan tarixini qamrab olgan. Munis yafol etgan, xonlik tarixini yuzish ishini Ogohiy davom ettirgan. U bitgan tarixiy asar „Shohidi ig'bol“ deb atalib, o'zida 1870-yilgacha bo'lgan tarixni aks ettiradi.



O'quvchilar mana mavzuni ham o'rganib oldik. Endi yangi mavzuni mustahkamlash uchun "Omad lotto" o'yinini o'tkazamiz. O'yin sharti yutuqli chiptalarni qo'lga kiritish uchun chiptadagi topshiriqni tezlik bilan bajarish kerak. Marhamat chipta olishga kirishing.

Omad lotto omadini chipta olgan biladi,  
Chiptadagi omad uchun o'qib, bilim oladi

**Yozdim** so'zidan sodda yoyiq gap hosil qiling gap tarkibida Word matn muharririga oid atama ishtirok etsin

**Yig'dim** so'zidan sodda yoyiq gap hosil qiling gap tarkibida kompyuter qurilmalari nomi qatnashsin

**Bajardim** so'zidan sodda yoyiq gap hosil qiling Excel elektron jadvaliga oid atama ishtirok etsin

**O'chirdim** so'zidan sodda yoyiq gap hosil qiling Paint grafik dasturiga oid atama ishtirok etsin

**O'qidim** so'zidan sodda yoyiq gap hosil qiling gap tarkibida internet tarmog'iga oid atama ishtirok etsin

**Ishladim** so'zidan sodda yoyiq gap hosil qiling Excel elektron jadvaliga oid atama ishtirok etsin

Darsimizning oxirgi rejasi "Bilim ring" deb nomlanadi. Bunda ikki guruhdan eng iqtidorli o'quvchilar chiqib, bellashadilar. Savollar raqib guruh tomonidan beriladi. Har bir o'quvchiga 3tadan savol beriladi. G'olib o'quvchi rag'batlantiriladi.

Dars so'ngida guruhlarning to'plagan baliga qarab guruhlar rag'batlantiriladi, o'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi.

Uyga vazifa: **136-mashq.**  
"Yurtimizni bog'ga aylantiramiz" mavzusida matn yaratish.

Shuning bilan darsimiz tugadi .Xayr! Bye-bye!

**Dars: Ona tili**

**Mavzu : SIFATLARNING MA'NO TURLARI**

## **Darsning maqsadlari :**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga sifatlarning ma'no turlari, rang-tus, maza-ta'mni, shaklni, hajmni, xil-xususiyatni bildirgan sifatlarning haqida bilim va tushunchalar berish.

**Tarbiyaviy:** kishilarning mehnatini qadrlashga o'rgatish, hamkorlikda ishlash ko'nikmasini tarbiyalash;

**Rivojlantiruvchi:** o'simlik va hayvonlarga, tabiat hodisalari, qushlar, o'quv qurollarining belgisiga to'g'ri so'roq berish va ularni guruhlab yozish malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, umumlashtiruvchi, integratsion dars.

**Dars metodi:** suhbat, analiz-sintez, ta'limiy o'yin, guruhlarda ishlash.

**Dars jihozi:** 6-sinf "Ona tili" darsligi, didaktik materiallar, plakatlar va kompyuter

## **Darsning borishi**

### **I. Tashkiliy qisim.**

### **3 daqiqa**

O'quvchilar o'zbek va ingliz tilida she'rlar aytib, salomlashadilar.

**O'qituvchi:** — Good morning pupils! (Salom, bolalar!).

Who is on duty today? (Bugun sinfda kim navbatchi?).

**O'quvchi:** — I am on duty today.

My name is... Today is 3 st of February.

Today is Friday. The weather is cloudy today.

Darsni boshlashdan oldin stol ustiga toq va juft sonlar qo'yiladi. O'quvchilar shu sonlarga qarab, ikki guruhga bo'linadilar.

Dars matematika faniga bog'lanadi.

1-Guruh — "Topqirlar", 2- guruh — " Bilimdonlar".

O'quvchilar darsning oltin qoidalari bilan tanishtiriladi:

### **1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 5 daqiqa**

Uy vazifasi "Do'stinga ishonaman" ta'limiy o'yini orqali tekshiriladi. O'quvchilar bir-birlarini daftarlarini almashtirib, uy vazifasi bajarilishini



tekshiradilar. Sinfdoshi mashqni to'g'ri bajargan bo'lsa, uning ishonchini oqlagan bo'ladi.

285-mashq. Birikmalardagi sifatlarni o'z ma'nosida qo'llab, gap tuzib yozing. (Bunda 6-sinf adabiyot darsligida keltirilgan "Muzqaymoq" hikoyasidan parcha beriladi)

*O'sha oilamiz boshiga og'ir kulfat tushgan kuni, men, o'n yashar bola, nimadandir ko'nglim g'ash, uyimiz ro'parasidagi paxsa devorga chiqib, o'zimcha go'yo otga minib o'tirardim.*

*U mahalda biz Turkiston shahrining eng so'lim joylaridan biri — Lager ko'chasida ikki xonadan iborat, oldi ayvon, o'sha zamon imkoniyatiga ko'ra tuzukkina uyda istiqomat qilardik. Bu uyning kattagina hovlisi ham bor edi. Ikki qavatli ulkan darvoza orqali kiradigan bu hovlida bizdan tashqari yana bir nechta xonadon yashardi. Darvozaning ustida quruq pichan saqlanadigan boloxona bo'lar, biz, bolalar oqshom paytlari berkinmashoq o'ynaganda boloxonaga chiqib pichan tagida "jon saqlardik". Oilamiz boshiga musibat tushgan o'sha mash'um kundan bir necha oy muqaddam dadam uyimizdagi deyarli barcha kitoblarni uch-to'rt qopga solib, beda tagiga yashirganu, boloxona eshigiga otning kallasidek qulf osib qo'ygandilar. Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu'lasiga solib, tomosha qilib o'tirishni yoqtirardim. Bu suratlar ham juda g'alati, ularning aksari charm palto kiyib, bellariga qilich va to'pponcha taqib olgan harbiy, ba'zilari esa ot o'ynatgan, qizil alvon ko'tarib dushman sari ot surib ketayotgan mardu maydonlar bo'lsa ham, negadir barchasining ko'zlari o'yib olingan yoki yuzlariga ko'k siyoh tortilgan edi. Nega shunday? Men bu sir-asrorning tagiga yetolmay qiynalardim, dadamlardan so'rashga esa yuragim dov bermas, sababi, dadamlar qahri qattiq odam edi, "bu kitoblarni senga kim ko'rsatdi" deb dashnom berishlari mumkin edi.*

*Guruhlarda ishlash:*

“Tezkor savol-javob” ta’limiy o‘yini orqali o‘quvchilarning bilimini tekshiriladi.

**“Topqirlar” guruhi uchun savollar:**

— So‘z turkumi deganda nimani tushunasiz?

— Sifat deb nimaga aytiladi?

—Sifatlar qaysi so‘z turkumidagi so‘zga bog‘lanib keladi?

**“Bilimdonlar” guruhi uchun savollar:**

— So‘z turkumlarini ayting!

— Sifatlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

—Sifatlar qanday ma’nolarda qo‘llanadi?

Bir daqiqa ichida ko‘p javob topgan guruh g‘olib bo‘ladi va ular rag‘batlantiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni. 28 daqiqa**

**Sifatlar shaxs va narsalarning rangini, mazasini, shaklini, hajmini va xil-xususiyatini bildiradi.**

**Darslik bilan ishlash.**

286-mashq sharti o‘quvchilarga o‘qitiladi. Ular so‘zlarni guruhlarga ajratib yozadilar, har bir so‘zga so‘roq beradilar.

**“Guruhini top” ta’limiy o‘yini.**

Bu ta’limiy o‘yinda berilgan sozlarni ma’nosiga ko‘ra o‘z guruhiga yozadilar.

Rang-tusni bildirgan sifatlar	Maza-ta’mini bildirgan sifatlar	Shaklni bildirgan sifatlar	Hajmni bildirgan sifatlar	Xil-xususiyatni bildigan sifatlar
<i>Oppoq</i>	<i>Taxir</i>	<i>Egri</i>	<i>Keng</i>	<i>Botir</i>
<i>yam-yashil</i>	<i>Shirin</i>	<i>dumaloq</i>	<i>kichkina</i>	<i>jasur</i>
<i>qip-</i>	<i>Achchiq</i>	<i>yapaloq</i>	<i>bepoyon</i>	<i>saxiy</i>
			<i>cheksiz</i>	<i>sho‘x</i>

*qizil*

Sifatlarni guruhlarga ajratib bo'lgach, ma'nodosh va qarama-qarshi ma'nolilari aniqlanib, o'quvchilarga daftarlariga yozish topshirig'i beriladi.

Masalan: Shirin-achchiq, keng-tor,.....

bepoyon-cheksiz, botir-jasur, .....

### **“Sehrli koptok” o'yini**

Basketbol koptogi yordamida bog'lanishli matn tuzish topshirig'i beriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan bir o'quvchiga koptok otiladi. U o'uvchi berilgan so'z yordamida gap tuzadi va boshqa o'quvchiga koptokni uloqtiradi. Keying o'quvchi ham bog'lanishli matnni davom ettiradi va yakunda “Kompyuter” sarlavhali hikoya paydo bo'ladi. Mavzu berishda esa harflarning alifboda joylashish o'rnidan foydalanish mumkin:

10, 14, 12, 15, 23, 20, 4, 17

288-mashq. Berilgan otlarga mos rang bildiruvchi sifatlarni topib, birikma tuzadilar va daftarlariga husnixat asosida yozadilar. Bu mashqni Ingliz tiliga bog'lab bajarish ham mumkin. Oldindan ko'rgazmada ranglar qavs ichida yozib ko'rsatiladi. O'quvchilar bu so'zlarni o'zbek tilida yozadilar.

(Red) qalampir, (white) piyoz, (brown) kartoshka, (green) karam,  
(red) pomidor, (red) lavlagi, (green) turp, (red) rediska, (green) kashnich,  
(yellow) bug'doy.

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. 4 daqiqa**

O'quvchilarga “Grafik test” ta'limiy o'yinidan foydalanib berilgan savollarning javobini quyidagi jadvalga belgilaydilar. Berilgan sifatlarning ma'no turlarini aniqlang va belgilang.

- 1.Nordon, sho‘r, achchiq, taxir.
2. Dumaloq, yapaloq, yassi.
- 3.Qizil, moshrang, olovrang.
- 4.To‘rtburchak, aylana, doira.
- 5.Shirin, chuchuk,lazzatli.
- 4.Katta, keng, bepoyon, tor.
- 3.A‘lochi, bilimdon , mard, kamtar.
- 2.Cheksiz, baland, past,qalin.

**Grafik test**

	<i>Rang-Tus</i>	<i>Shakl</i>	<i>Maza- ta‘m</i>	<i>Hajm</i>	<i>Xil- xususiyat</i>
<b>1</b>					
<b>2</b>					
<b>3</b>					
<b>4</b>					
<b>5</b>					

**V.Darsga yakun yasash va baholash. 3 daqiqa**

Savollar:

1. Bugun darsda nimalarni o‘rgandingiz?
2. Sifatlarning ma‘no turlarini sanang.

Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi. G‘olib guruh aniqlanadi.

**Uyga vazifa. 2 daqiqa**

O‘quvchilarga o‘tilgan mavzuni takrorlab, 289-mashqni shartiga ko‘ra bajarib kelish topshirig‘i beriladi.

**3.2. O‘tilgan ochiq darslar bo‘yicha qiyosiy tahlil**

Umumta'lim maktablarida ona tili darslarini boshqa fanlar bilan aloqadorlikda tashkil etishning samarali usullarini tahlil qilar ekanmiz, bunda umumta'lim fanlarining turli o'ziga xos jihatlarini ham nazarda tutishni lozim deb bildik. Ona tili fani boshqa fanlar uchun ko'prik vazifasini bajarishini inobatga olsak, fanga o'quvchilarning munosabatini jiddiylashtirish zarurati tug'iladi. Odatda grammatik va turli mashqlar o'quvchini fanga nisbatan munosabatini manfiy tomonga o'zgartiradi. Lekin shuni ham inobatga olish kerakki, har qanday o'quvchini o'z sevgan fani va qobiliyati bo'ladi. Ana shuni payqagan o'qituvchi yuqoridagi faktorlarni inobatga olib, dars jarayonini tashkil etadi. Bunda esa fanlararo integratsiya qo'l keladi.

Biz tajriba-sinov darslarini olib brogan 8-sinf o'quvchilarining asosiy qismi ona tili fanini juda yaxshi o'zlashtiradilar. Biroq yondosh fanlarning elementlarini ham dars jarayonida qo'llash dars samaradorligini oshirmay qo'ymaydi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchiidan, biz darsni she'riy misralar hamohangligida olib bordik va natijada o'quvchilarni badiiy adabiyotni sevisishga yo'naltirdik.

Ikkinchiidan, dars davomida asosan, informatika fani bilan aloqa bog'lashga urindik, sababi axborot texnologiyalari zamonida o'quvchining bu boradagi bilim va malakalarini oshirishga intildik va erishdik.

Uchinchiidan, izlanish davomida o'zimiz ham yondosh fanlarning darsliklarini varaqlab, bilimlarimizni mustahkamladik va ijodiy yondashdik. Bu esa pedagog uchun juda muhimdir.

To'rtinchidan, tarix fani bilan integratsiya o'rnatdik va aynan 8-sinf O'zbekiston fani darsligidan foydalandikki, o'quvchilar ikki fanning aloqasini yanada teranroq his qildilar.

Beshinchidan, darsda o'quvchilarni jismonan harakatlantiradigan o'yinlar axtardik, zotan bu 45 daqiqalik darsimizni yanada mazmunli qildi. "Sehrli koptok" o'yini o'quvchilarning ham tafakkurini yaxshilashga, ham epchil va chaqqon bo'lishga undadi.

Oltinchidan, fanlararo integratsiya o'quvchilarni hamda o'qituvchilarni faqat bir predmet doirasida chegaralanib qolmaslikka va doimo izlanishda bo'lishga undaydi.

O'qituvchi bunday darslarga oldindan tayyorlanadi va yondosh fanlardan saboq beruvchi o'qituvchilar bilan hamkorlik o'rnatadi. Ko'rinib turibdiki, fanlararo integratsiya ta'lim sifatini oshiradi va o'quvchilarni ko'proq izlanishga undaydi.

## XULOSA

Maktabda o'qitiladigan ona tili fanining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, uning g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning ona tili fanining o'zlashtirish darajasi ham, o'z navbatida, o'qitishning amaliy-ilmiy asosda maqsadga muvofiq tashkil qilinishiga, o'qituvchining o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, usullari hamda vositalaridan foydalana olishiga bog'liqdir. Shuningdek, o'qitishning natijalari ham o'qituvchining, o'qitishning ko'zlangan maqsadi, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilab olishiga kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullaridan ilmiy asosda foydalana bilishga bog'liqdir. Ona tili o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga uzluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Ona tili o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi.

Ona tili darslarida fanlararo integratsiya(bog'lanish)dan foydalanish yoshlarni mehnatga ongli munosabatda bo'lishi ruhida, o'zbek xalqining ona tili o'tmishi, milliy ma'naviyati ruxida, huquqiy tarbiyalash, hamda ularni bilish va ijodiy ishlash o'rgatib borish ko'zga tutiladi. O'quvchilarda ona tili tafakkurni shakllantirishda va rivojlantirishda fanlararo integratsiyadan foydalanish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayoni o'qituvchi rahbarligida boshqariladi. O'quv materialini o'rganish, o'rganilgan bilimlar asosida malaka hosil qilish va ularni umumlashtirish hamda tekshirishga ketgan vaqt o'quv jarayoni hisoblanadi. O'quv jarayoni mantiqini o'quv materialini va uni o'zlashtirish psixologiyasi tashkil etadi. Boshqacha aytganda, o'quv jarayoni mantiqiy o'quv materialini mazmuni bilan uni o'zlashtirish psixologiyasining o'zaro bog'lanishidan iborat. Bu haqda M.A.

Danilov shunday deb yozadi: “O‘quv jarayoni logikasi–obektiv qonuniyat. U bolalarning o‘quv predmeti, uning bo‘lim va mavzularini o‘rganish boshlangan davrdagi bilim saviyalari, taraqqiyot darajalaridan tortib, to o‘quvchilarning bilim va taraqqiyotlariga mos ravishda ta‘lim predmeti, uning bo‘lim va mavzularini to‘liq o‘zlashtirgunga qadar bo‘lgan izchil harakatini o‘z ichiga oladi”. Demak, o‘quv jarayoni mantiqi deganda, ta‘lim mazmunining statikasi emas, aksincha, uning dinamikasi nazarda tutiladi.

O‘quv jarayoni mantig‘i o‘quv jarayoni taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, u o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan vazifalarda, bu vazifalarni echish uchun bolalar ko‘rsatadigan aqliy, jismoniy, hissiy intilishlarda o‘z aksini topadi. O‘quv jarayonida bolalar oldiga qo‘yilgan har bir topshiriq faoliyatni talab etadi. Faoliyat ko‘rsatish orqali har bir topshiriqda ifodalangan mazmun o‘zlashtiriladi. O‘quv predmeti bo‘yicha o‘tkaziladigan darslarning, dars doirasida tashkil etiladigan topshiriqlarning o‘zaro aloqadorligiga rioya qilish yo‘li bilan o‘quv jarayonining dialektik mohiyatiga amal qilinadi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида” ги ПФ-4797 сонли Фармони. 2016 йил 13 май.
4. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T: O‘zbekiston, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017- yil 7-fevraldagi farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori. – Xalq so‘zi, 2017-yil, 21-aprel.
7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – T.: O‘zbekiston, 2014.
8. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни //Ўзбекистоннинг янги Қонунлари: Тўплам. –Т., 1996. – Б. 20-30.
9. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – T.: Шарқ, 1998. – Б. 20-29.
10. Ўзбек мактабларида она тили таълими концепцияси // Тил ва адабиёт таълими. – 1994. – № 1. – Б. 8-13.
11. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016.
12. Ona tili fanidan Davlat ta’lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim

standartlari va o'quv dasturlari. – RTM, 2010. – B. 10-19.

13. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil.

14. Абдиев М., Сафаров П., Ноанъанавий дарс шакллари. (Она тили ва адабиёти учун қўлланма). Самарқанд. 1996. 22б.

15. Бобомуродова А. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқлардан фойдаланиш. – Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1997.

16. Жўраев Р.Х., Рахимов Б.Х., Холматов Ш.Ф., Янги педагогик технологиялар.–Т., Фан, 2005. 66 б.

17. Зиёмухамедов Б., Педагогик технология – замонавий миллий модели. – Т., 2009. 103б.

18. Зиёмуҳаммадов Б, Абдуллаева Ш., Илғор педагогик технология: Назария ва амалиёт. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2001.

19. Иноғомова Р. Феъл замонларини ўрганишда ўқувчиларнинг нутқи устида ишлаш. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1974.

20. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Она тили. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / Sakkizinchi nashri. – Т.: O'qituvchi, 2017. – 152 б.

21. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда педагогик технологиялар. – Т., 2008. 181б.

22. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Она тили: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan 4-nashri. – Т.: Ma'naviyat, 2015. – 224 б.

23. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., D.Nabiyeva. Она тили: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. – Т.: Tasvir, 2013. – 208 б.

24. Mahmudov M. H. Ta'lim etaloni. – Buxoro. 1999.

25. Мавлонова К. Она тили дарсларида бадиий матннинг тил хусусиятларини интеграциялаш асосида ўрганиш методикаси. Монография. . – Т.: Mashhur-press, 2016. 254 б.

25. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan 3-nashri. – Т.: Ilm Ziyο, 2010 – 223 б.

26. Очилов М., Янги педагогик технологиялар. – Қарши. 2000.

27. Roziqov O.v.b. Она tili didaktikasi. – Т: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.

28. Толипов Ў. Усмонбоева М., Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан. 2006.

29. То‘хлиев В., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Т.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.

30. Fuzalov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh. Она tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik / 14-nashri. – Т.: O‘qituvchi, 2016. – 192 б.

#### **Elektron sayt materiallari:**

<http://uza.uz/oz/documents/alisher-navoiy-nomidagi-toshkent-davlat-zbek-tili-va-adabiye-13-05-2016>

<http://navoiy-uni.uz/uz-1/content/ozbek-tili-va-adabiyoti-boyicha-malakali-mutaxassislar-tayyorlashning-yangicha-tamoyillari>

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.pedagog.uz/>

[www.forum.uz](http://www.forum.uz)

[www.ref.uz](http://www.ref.uz)

[www.ilm.uz](http://www.ilm.uz)

## **Inglizcha – o‘zbekcha so‘zlar lug‘ati**

1. Dars – lesson
2. Darslik – textbook
3. Ekstralingvistik bilim – extralinguistic knowledge
4. Etimologik ildizlar – etymological roots
5. Hissiy bo‘yoqdorlik – emotional coloring
6. Izlanish - searching
7. Integratsiya-integration
8. Madaniy tushuncha – cultural concept
9. Metodika – methodology
10. O‘qitish – teaching
11. O‘qituvchi – teacher
12. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi – the methods of teaching Uzbek language
13. Olamning g‘oyaviy manzarasi – conceptual picture of the world
14. Ona tili – mother tongue
15. Pedagog – educator
16. Rivojlanish – progress
17. Saboq bermoq – to give lessons
18. Sinov – trial
19. Ta’lim – study
20. Til – language
21. Tilning leksik va sintaktik o‘ziga xosligi – lexical and syntactical idiosyncrasy
22. Tilning leksik va sintaktik o‘ziga xosligi – lexical and syntactical idiosyncrasy
23. Tilshunos – linguist
24. Uslubiy vositalar – Stylistic devices
25. Usul – procedure